**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MUSIQA TA`LIMI NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI**

**“Himoya qilishga ruxsat beraman”**

**Ped-psixologiya fakul’teti dekani**

**___________prof. R.Abdurasulov**

**“_____” ______________ 2014 y**

**“**Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarga folklor qo`shiqlari o`rgatishning tarbiyadagi ahamiyati**”**

**mavzusida bajarilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi:** Davletova A.

**Ilmiy raxbar:** Haydarova N

**Ishni himoyaga tavsiya etaman:** Haydarova N

**BMI Musiqa ta`limi nazariyasi va uslubiyati kafedrasi yig’ilishining qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.**

**Kafedra mudiri: _________ X.Omonov**

**Jizzax – 2014**

**MAVZU: “Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarga fol`klor qo`shiqlari o`rgatishning tarbiyadagi ahamiyati”**

## M U N D A R I J A

**KIRISH:**

**I -BOB:** O’zbek xalq qo’shiqlari xalqning ma’naviy xazinasidir

**1.1.**Yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda o’zbek xalq qo’shiqlarining o’rni

**1.2.**Xalq qo’shiqlarini bolalar ongiga singdirishning shakl va usullari

**II- BOB**: Musiqa mashg’ulotlarida xalq qo’shiqlarini o’rgatishning o’ziga xosligi

**2.1.** Xalq qo’shiqlarini o’rgatish orqali o`quvchilarda milliy istiqlol g’oyalarini shakllantirish

**2.2.** Umumta’lim maktablari badiiy xavaskorlik to’garaklarida xalq qo’shiqlarini o’rgatishning uslublari.

**UMUMIY XULOSALAR**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

**ILOVALAR**

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Instituti 5141000 "Musiqiy talim" yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Davletova Anoraning**
**"Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarga fol`klor qo`shiqlari o`rgatishning tarbiyadagi ahamiyati"mavzusidagi**

**Bitiruv Malakaviy Ishiga ilmiy rahbar**
**XULOSASI**

Mustakilligimiz sharofati tufayli milliy kadriyatlarimizga e'tiborimiz kundan-kunga kuchayib bormokda. Bu qadriyatlaming bir ko'rinishi bo`lgan o`zbek xalq qo'shiqlarini o'rgarish va targ'ib qilish hozirda zamon talablari hisoblanadi.

Mana shu jihatdan olganda o'quvchilarga qadimiy an`analarimizni, urf-odatlarimiz, marosimlarimiz va xalq ogzaki ijodi hisoblanmish o`zbek qo'shiklari namunalarini o'rgatish orkali vatanga muhabbat uyg'otish shu kunning ta'lim tizimi xodimlarning, tarbiyachi va pedagoglaming dolarb vazifasidir. Mavzuning dolzarbligi ham mana shu holatdan kelib chiqqanidan muhimdir.

Bitiruv Malakaviy Ishini yozish davomida talaba mana shu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda mavzuga yondoshgan. Ishning kirish qismida bu to'g'rida batafsil yoziiib, unda mavzuning dolzarbligi maqsadi, tarbiyaviyligi, predmeti va ob'vekti hamda ahamiyatiga alohidato'xtalib o'tgan.

Bitiruv Malakaviy Ishi kirish, ikki bob, to'rt paragrof, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-bobda O'zbek xalq milliy tarixiy kadriyatlarmi o'rganish yosh avlolni ma'naviy mafkuraviy tarbiyalashning bosh mezoni ekanligi, xalq og'zaki ijodi namunalari ham milliy kadriyat bo'lib, necha ming yillar davomida shakllanib, saykal topib kelayotganligini,bu san'atni xalqimiz bejiz shuncha davrlardan buyon ardoklab kelayotganligi to'g'risida Prezidentimiz asarlarida va ma'ruzalarida berilgan fikrlarga asoslanib yoritib berilgan.

2-bobda sinf va sindan tashqari mashg`ulotlarda xalq qo'shiqlari namunalarini tinglash va o`rganish orqali vatanparvarlik his-tuyg `ularini va milliy

istiqlol g'oyalarini shakllantirishning yo`l-yo`riqlari to'g`risida fikr yuritilgan. Muallif Bitiruv Malakaviy Ishi mavzusi ho'yicha izlanish, belgilangan metodik tavsiyalarga ko'ra namunali bitiruv ishi deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:** **N.Haydarova.**

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Instituti 5141000 Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi talabasi Davletova Anoraning "Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarga folklor qo`shiqlari o`rgatishning tarbiyadagi ahamiyati" mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishiga**

**T A Q R I Z**

Bitiruv Malakaviy Ishi bilan tanishib chiqdim. Ish ikki bob, to`rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat. Ishning kirish qismida

tanlangan mavzuning hozirgi zamon ta’lim sohasida o’rganilishi, dolzarbligining tarbiyaviv ahamiyati, mavzuning yo’nalishi bo`yicha maqsadi ob`ekti va predmeti ilmiy va pedagogik ahamiyati batafsil ochib berilgan.

Mavzuning mohiyati va tub mazmuni ochib berish borasida kimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan hamda bu fikrlar Prezidentimiz asarlarida bildirilgan fikrlar asosida shuningdek, atokli olim va yozuvchilar fikrlari asosida isbotlab berilgan

I-bob “O’zbek xalq qo’shiqlari xalqining ma’naviy xazinasidir” deb nomlangan bo`lib bar tomonlama asoslangan fikr va g’oyalar majmiyidan, uning yosh avlodning estetik dunyo karashi shakllanishi bolalarning ahlokiy, jismoniy, vatanparvarlik, insonparvarlik tarbiyasi shakllanishiga ham munosib hissa ko’shishi to’yefrisida kadimiv rivoyatlardan misollar keltirilgan holda to`la to`kis ma’lumotlar berilgan.

II-bobda esa mavzuning bosh maqsadi bolgan rejalashtirish va bu jarayonda xalq qo`shiqlarini o’rgatishning o’ziga xos pedagogik uslublari hakida to`lik ma’lumotlar berilgan. Ishni yoritish jarayonida korsatilgan masalalar, muammolar, ularni hal qilish yo’lida bildirilgan fikrlarga ko’ra bu ishni namunali Biturav Malakaviy Ish deb atash mumkin.

**JDPI Musiqa ta`lim nazaryasi va metodikasi**
**kafedrasi katta o`qituvchisi: H.Omonov**

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Instituti 5141000 "Musiqiy ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi talabasi Davletova Anoraning “Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarga folklor qo`shiqlari o`rgatishning tarbiyadagi ahamiyati” mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishiga**

## T A Q R I Z

"Ta’lim to’g’risi" dagi qonun KadrlarTayyorlash Milliy Dasturi va shu asosida qabul qilingan DTS talablari asosida ta’lim samaradorligmi oshirish ayni paytda oliy maqsadlarimizdan biridir.

Bitiruv Malakaviy Ishi mavzusi umumiy o’rta ta’lim maktablari musiqa darslarida o’zbek xalq qo’shiqlarini o`rgatishning o’ziga xosligi deb nomlanib

muallif mavzusini asoslashda umumta'lim maktablarida xalq qo'shiqchiligining go`zal ko'rinishi bo`lgan o' zbek xalq qo'shiqlari yoshlar ma'naviy kamolotining shakillanishining vositasi sifatida oilada, maktabda, maktabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarda atroflicha o'rganishning shakl va ustillari ushbu Bitiruv Malakaviy Ishida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Bitiruv Malakaviy Ishi kirish, ikki bob, to`rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Birinchi bob "O'zbek xalq qo'shiqlari xalqining ma'naviy xazinasidir"deb nomlanib uni nazariy va amaliy asoslari taqdim qilingan.

Ikkinchi bob "Musiqa mashg'ulotlarida xalq qo'shiqlarini o'rgatishning o'ziga xosligi" deb nomlanib, uni amalga oshirishda foydalanilgan shakl, usullar va tajriba-sinov mashqlarining natijalari, ilmiy asosga ega tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishda ayrim kamchiliklar mavjud ammo bu ishning ilmiy darajasini pasaytmaydi. Bitiruv Malakaviy Ishi yakuniy Davlat Attestasiyasining nizomi talablariga mos holda ilmiy, tushunarli yozilgan.

Xulosa qilib aytilganda Bitiruv Malakaviy Ishi Davlat Attestasiyasining "Nizomi" talablariga javob beradi.

**Jizzax shahar 1-sonli Bolalar musiqa**

**va san'at maktabi direktori: G.Begbo`tayeva.**

# KIRISH

Istiqlolimiz sharofati tufayli yosh avlodni tarbiyalashdek muhim ishlarni avlodni tarbiyalashdek, g'oyaviy-mafkuraviy dunyoqarashlarini shakllantirish ya'ni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdek muhim va sharafli vazifalarni bajarish o'z ixtiyoriga o'tadi.

Mustabit tuzum davrida ta'lim tarbiyaning barcha jabxalari o'ta mafkuraviy asosga, ya'ni sarobga aylangan kommunizm qurish g'oyasi bilan yo'grulgan edi. Bu g'oyaning tagida esa ruslashtirish siyosati yashiringan edi. Ba'zi regionlarda ular maqsadlariga erishishga ham ulgurishdilar. Buni biz o'sha davrdagi ko'p jixatlarda ko'rsak bo'ladi. XX asrning 80 yillarida bo'lib o'tgan mustabitlar milliy mafkuramizni yo'qolib ketishiga sabab bo`ladi. 90-yillarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar xalqimizning asriy orzusi bo'lgan mustaqillik, ya'ni buyuk istiqlolga erishuviga sabab bo'ladi.

Shunday ro'y bergan bunday tarixiy mudxish voqea va xodisalar milliy qo'shiqchilik san'atimizning tarixiy taraqqiyoti davrlarida o'z-o'zini qoldirgani yosh avlodni ongiga singdirish, ularning o'tmish davrlarida xalqimiz hayotida ro'y bergan bunday fojealardan ogox bo'lishni, ulardan to'g'ri xulosa chiqarishni kelajakda bunday mudxish xodisalar ro'y bermaganligi uchun kurashishni lozimligini ko'rsatib o'tmoq kerak. Har bir jamiyatning milliy-ma'naviy omillarisiz uni istiqbolini tasavvur yetib bo'lmaydi. O'zbek xalqining milliy-ma'naviy qadriyatlari tizimida uning o'ziga xos turmush tarzi, tarixi, tili, etnografiyasi, ruhiyati, muhim rivojlanish bosqichlari hamda xalq pedagogikasining eng ilg'or g'oyalarini o'zida mujassam etgan xalq musiqiy ijodiyoti muhim o'rin tutadi. Shu bois ham I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat ma'naviy, milliy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi". Bu bejiz emas, chunki kelajagimizni taqdiri, ko'p jihatdan yosh avlodni tarbiyasiga bog'liq.

**Mavzuning dolzarbligi.** Musiqa darslarida o'quvchilarni milliy musiqiy merosimiz folklor namunalari bilan chuqur va har taraflama tanishtirib borish bu yo'ldagi muhim vazifalarni hal etishning muhim omilidir.

Xalq musiqa ijodiyoti juda boy va serqirra bo'lib, ular orasida bolalar o'yin qo'shiqlari ham salmoqli o'rin egallaydi. Shunday ekan musiqa darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish maxsus pedagogik yondashuv va mezonlar asosida amalga oshirilishi zarur.

Shu o'rinda xalq musiqiy ijodiyotiga mansub namunalarni tanlab olishda quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlab o'tishni lozim deb bildik:

1. Xalq qo'shiqlari namunalarini o'rganishda qo'shiqni ijrochilik nuktai-nazaridan o'quvchilar yoshi, kuylash imkoniyatlariga va musiqa darslarini o'quv dasturi bo'yicha yillik mavzularga mosligiga e'tibor qaratish;

2. Namunalarni tarbiyaviy-ta'sirchanlik xususiyatga ega bo'lishligi;

3. Namunalarning o'quvchilarni umumiy dunyoqarashlarini, musiqiy qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ahamiyatliligi;

4. Asarlarni o'rganish va kuylash jarayonida ularni o'ziga xos ijro uslubi, janri, qanday holatlarda ijro yetilishi, mazmuni, qaysi mahalliy uslubga tegishliligi haqidagi ma'lumotlarga e'tiborni qaratish;

5. Namunalarni o'zlashtirish uchun qulay va tushunarli bo'lishi.

Ta'kidlab o'tilgan pedagogik mezonlar musiqiy ta'limga xos bo'lgan mustakil repertuar tanlash imkoniyatlari bunday yondashuvlarni ijobiy ahamiyat kasb yetishini ta'minlaydi.

**Mavzuning tarbiyaviyligi:** Bir necha ming yilllardan buyon xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan mumtoz musiqa asarlarimiz: makomlar, marosim qo'shiqlari, yor-yorlar, ulanlar va boshqa asarlarni milliy kadriyatlarimiz sifatida ardoklanadi. Ularning kelib chikish tarixi, kaysi

region yoki xududga xosligi turlari va ijro uslublari, ularning yaratgan va ijro yetgan mashxur shaxslar, qadimiy cholg'u soslarimiz, ularning paydo bo'lishi va takomillashishi, raqs san'ati, dostonchilik va boshqa musiqiy yosh avlod ongiga singdirish, ularni avvalo vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ulug' maqsad uchun xizmat qilsa, ikkinchidan yosh avlodning o'tmish tarixi davomida yuz bergan voqea va hodisalardan xabardor bo'lishiga undan uzlari uchun to'g'ri xulosa chiqarishga, saboq olishga undaydi. Avvalo shuni aytish kerakki, xar qanday turdagi qo'shiq yoki ashula u qanday turda yoki janrda bo'lishidan qat'iy nazar kuy va ohangining she'riyat bilan uyg'un bo'lishidan hosil bo'ladi. Bu uyg'unlik qo'shiqqa alohida joziba bag'ishlab ijrochi xonanda va tinglovchilardan ma'lum bir emotsional hissiyotlar uyg'otadi. Bu mazmun qanday bo'lsa, unga ko'ra kuy va ohang tanlanadi.

Mavzuning qo'shiqchilik san'ati to'g'risida bo'lganligi sababli, uning **tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida** qanchalik gapirsak ozdir. O'zbek xalq qo'shiqchiligi kelib chiqishi jihatidan o'ta qadimiy bo'lib, uning paydo bo'lishi tarixiy davrlarga borib taqaladi.

Xalq qo'shiqlari namunalari deganda xalqimiz orasida oldindan kuylanib kelinayotgan va og'izdan-og'izga ko'chib yuruvchi aksariyat terma, terma to'rtliklarga bastalangan qo'shiqlar tushunilsada aslida u faqatgina qo'shiq emas qadimiy kuylarimiz, raqs dostonlarimiz, rivoyat, ertaklar, matal va asotirlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy - adabiy yozma manbalar hamdir. Shunday ekan hozirgi mustaqillik davrimizdagi qo'shiqchiligimizning holati to'g'risida ham bir oz fikr yuritish zarur. Shuni aytish kerakki, bozor iqtisodiyoti asosida qurilayotgan hozirgi jamiyatimizda qo'shiqchilik sohasining taraqqiyoti nihoyatda tezlashib ketdi. Lekin bu tezlanish jarayoni tabiiy ravishda bo'lmay, balki tashqi ta'sir natijasida yuz bermoqda. Turli xarakterdagi musiqa va kino asarlari yopirilib ko'rishga sabab bo'lmokda. Hozirgi zamon qo'shiqchiligi masalasiga tarbiyaviy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak shuni aytish kerakki, ayrim shoirlarimiz she'r yozishni qofiya borliqdan iborat deb bilan yoki bu she'rlarni umuman shoirlar yozmagan. Bundan tashqari qo'shiqni chiroyli,

jozibador va yoqimli kuylash o’rniga, qanday qilib bo’lsada ritm berib turuvchi ovoz kuchaytirgich uskunalarini baland qilishga harakat qiadilar. Katta tok kuchiga va yuqori kuchlanishga ishlaydigan 1 km, 2 km va hokazolar ovoz kuchaytirgich uskunalarini ishlatish qo’shiqlar urtasida musobaqaga aylanib bormoqda. Ahir ming yillardan buyon davom yetib kelayotgan milliy qo’shiqchilik san’atimiz qonuniyatlari bo’yicha asosiy o’rinda tabiiy inson ovozi milliy ohang va she’rning mazmuni turgan ediku. cholg’u sozlari shu ohanglar ijrosiga jo’r bo’luvchi bu ohanglar ta’sirchangligini oshirish qo’shiq ijrosi jarayonida nafas olish va boshqa to’xtalishlar evaziga hosil bo’ladigan bo’shliqni to’ldirish uchun qo’llaniladigan vosita emasmi? cholg’ularning vazifasi ijro etiladigan tanalka, sozlanish qo’shiq ijro etiladigan musiqa ritmni belgilash va uni ijro davomida harakatlanish ya’ni ijro etilishdir. Bunday qo’shiqlar yosh avlod badiiy estetik dunyo qarashiga salbiy ta’sir etib, ularning estetik dinni, farosatni o’zlashtiradi. Shuningdek ijodkorlikning yangi-yangi musiqa asboblari asarlari yaratishga undash bo’lsa, bundan tashqari O`zbekiston buyuk mamlakatni ulug’lovchi, unda yashovchi xalqlarning insoniyligi, mehnatsevarligi, mehmondo’stligi, tinchlikparvarligi, bundan tashqari shu mamlakat tabiati, yer suvi undan yetishtirilayotgan tabiiy boyliklari, urf-odat va an’analarimizni ulug’lash orqali yosh avlod ongiga vatanga, uning eliga, moddiy va ma’naviy boyliklariga muxabbat uyg’otishdir.

**Mavzuning ahamiyati.** Xalq qo’shiqlari ijrochiligi va qo’shiqchilik san’atimizning mohiyati va tarbiyaviyligi, ahamiyati to’g’risida ko’p gapirish mumkin. Qo’shiqchilik bu shoir bastakor va xonandaning hamkorligi mashaqqatli mehnati natijasida dunyoga keladigan uzidan ma’lum darajada tarbiyaviylikni ifoda xususiyatini va mantiqini birlashtirgan mujassamlashtirgan kichik badiiy estetik asardir. Musiqa san’atining boshqa turlari, masalan, raqs san’ati musiqa asar zamirida yashiringan fikrlarni harakatlar va mimika yordamida tomoshabinga yetkazsa, cholg’u musiqasi esa kuylar zamirida yashiringan fikr va goyalarni tovushlar, dinamik belgilar asar tezligi va ijro mahorati yordamida anglatadi. Zero mavzumiz o’zbek xalq qo’shiqchilarini o’rhanish hamda kuylash to’g’risida ekan ularni xar kim xar vaktida o’rhanishi mumkin. Ushbu malakaviy ishimizni asosiy

maqsadi, ularning uslublarini o`rganuvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olish, ularni o'rgatishga ijro miyorlarini to'g'ri belgilash urgatuvchilar ovoz xosil qilish imkoniyatlarini musiqiy yeshituv kobiliyatining kay darajada rivojlanganligini kizikishni xisobga olish ularning ovozini va sogliklarini asrash kabi muxim pedagog amallar uslublariga rioya qilish yul yuriklar metod va usullari to'g'risida batavsil va xar tomonlama tadkikotlarning olib borishdan iboratdir.

**Mavzuning maqsadi:** Mavzuning **"**Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarga folklor qo`shiqlari o`rgatishning tarbiyadagi ahamiyati**"** deb nomlanishi ming yillar davomida og`izdan-og`izga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ogzaki ijodi namunalarini janrlarini tanishtirish ularning shu darajada umriy bokiy bulib kolishi ya'ni shuncha davrlardan buyon yashab kelayotganligi sabablarini taxlil qilish xalqimizning milliylikka yugrilgan bu kimmatli madaniy boyligining paydo bo'lishi tarixiy sabablari va ularning tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida bolalarga chukur bilim berish ulardan namunalar kuylashga o'rgatishning metod va usullar to'g'risida izlanishlar tadqiqotlar olib borish mavzumizning asosiy maqsadidir.

**Mavzuning predmeti.** Pedagogika-psixologiya, musiqa o`qitish metodikasi, musiqa tarixi, musiqiy asarlar taxlili va adabiyoti umumiy o`rta ta`limning musiqa madaniyati va boshqa fanlarning o'zbek milliy xalq qo'shiqlari merosi xamda uni o'rhanishga bagishlangan bilimlari yoki unga daxldor fikr va muloxazalari ularni o'rgatish metod va usullari to'g'risidagi yul-yuriklari asosida bajarilgan ishlar to'g'risida izlanish va tadkikotlar olib borishdir.

**Mavzuning obekti:** Umumta'lim maktablarida o`qiyotgan kelajagimiz vorislari bo`lmish bolalarga milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz xalqimiz tomonidan yaratilib necha ming yilliklar davomida yashab kelayotgan xalq qo'shiqlari marosimimiz, uning paydo bo'lishi va rivojlanish omillari turlari, janrlari tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida chukur va puxta bilim beri shorkali bolalarda uz yurtiga, xalqiga ona zaminiga bo'lgan mex rva muxabbatni kuchaytirish xalqimizning ardoklab kelayotgan harakatlariga chukur xurmat va ulardan faxrlanish shunday meros yegasi bo'lganliklari uchun gururlanish

xissiyotlarini uyg`otishdir. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda kunlik ijtimoiy xayotimizda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimzning oqrni beqiyosdir. Bu borada asrlar usha xalqdan xalqka ustozdan shogirtga o'tib kelayotgan xalq ma'naviy xazinasining bebaxo boyligi bo'lgan o'zbek xalqi musiqa merosi bo`lmish xalq qo'shiqlaring yoshlar tarbiyasida ulkan ahamiyat kasb etilishini unutmasligimiz kerak, jumladan, xalq donishmandligining guzal ko'rinishi bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlari yoshlar ma'naviy kamolotining shakllanishi vositasi sifatida oila, bolalar bogchalari, maktablarda maktabdan tashqari musiqiy mashgulotlarda atroflicha urganilishi muximdir. Yurtboshimiz I.A.Karimov konservatoriya yangi binosining ochilish marosimida so`zlagan nutqida ta'kidlab o`tganidek «Odamzod yozish-chizishni ukishni bilmasligi mumkin, lekin shubxa yukki guzal kuy va ohang, taronalarning xayotbaxsh ta'sirini xar qanday vaziyatda xam sezadi» shuning uchun xam musiqa insonga xamisha xamrox uning tuygulariga xamisha xamroxdir. Shuning uchun xam o'zbek xalqining musiqiy ogzaki ijodi, xunarmandchiligi me'morchiligi adabiyoti kanchalik qadimiy bo'lsa, uning musiqasi shu qadar qadimiy deb ayta olamiz, Teran milliy musiqamiz zarchashmalariga tayangan ne- ne xofizlar, sozandayu xonandalar uzining betakror ijro yullari bilan xalqimiz kalbidan chukur joy olib, jaxon qo`lamida obru-e'tibor kozonganlari bejiz yemas. Bu musiqiy merosimizni biz atroflicha bilishimiz, o'rhanishimiz kerak. Uning asosida o'zbek xalqining milliy ruxiyati oliy insoniy fazilatlari, badiiy madaniyati, mustaqillik uchun kurashi, istiklol goyalari yotadi. Milliy musiqa ta'limining asosiy maqsadi yosh avlodning milliy musiqa merosiga vorislik qila oladigan xamda umumbashariy musiqa boyligini idrok yeta oladigan madaniyatli inson darajasiga yetkazishdan iborat. Umumiy ta'lim maktablari oldiga xar tomonlama rivojlangan komil inson tarbiyasini amalga oshirish mas'uliyati qo`yilar ekan bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda maktab musiqa darslari jarayonida o`rgatiladigan o'zbek xalq qo'shiqlarining ya'ni xalq musiqa san'atining urnini unutmasligimiz kerak. «Yosh kalbga ta'sir ko`rsatishning ko`plab vositalari orasida musiqa kata o'rin yegallaydi. Musiqa va axloq bu chuqur o`rganilishi va tadqiq etilishi zarur bo'lgan masaladir.

Musiqa tufayli odamda oliyjanoblik, ulugvorlik, guzallik tashki dunyodangina emas, balki uning uzida xam mavjud yekanligi to’g’risida tasavvur yuzaga keladi. Musiqa o`z-o`zini tarbiyalashning kudratli vositasidir

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslari jarayonida o`quvchilarning ma’naviy va axloqiy sifatlarini shakllantirishda o’zbek xalq qo’shiqlarining o`rni ahamiyatli ekanligini unutmasligimiz kerak. Chunki yuqorida eslatganimizdek, xalq qo’shiqlari «xalqning jonli yensiklopediyasidir». Rivoyat qilishlaricha qo’shiq xalq kalbidir. Qo`shiqsiz xalq bo`lmaydi.

Bu uslubiy qo`llanma musiqa madaniyati darslar ham musiqa bo’yicha sinfdan tashqari mashgulotlar jarayonida boshlangich sinf o`quvchilariga o’zbek xalq qo’shiqlarini atroflicha o’rgatishga bagishlangan bo`lib, bu mavzu shu kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biridir.

Xalq musiqasi xalqning ma’naviyati manbaidir. Xalq ma’naviyat boyligining ko`zgusi bo’lgan o’zbek xalq qo’shiqlarining sarchashmalari tarixiy olislardan boshlanib xalq ijtimoiy xayoti bilan uzviy bog`liq. Xalq qo’shiqlarining ilk ko’rinishi inson ongining rivojlanishi natijasida mexnat jarayonida vujudga kelgankim, mexnatkash xalq mexnat unumidan va tabiat guzalliklaridan ilxomlangan xolda uzining qo’shiq va cholg’u ohanglarini ijod kilganligi musiqavii meros hozirgi vaktda o’zbek musiqa madaniyatining rivojlanishi uchun asos bo’lish bilan birga jaxon xalqining xam sevimli qo’shiqlariga aylanib kolayotganligining guvoxi bulamiz. O`zbek xalq musiqa merosi bilan tanishar ekanmiz, biz mexnatkash xalqning tarixiy bosib o`tgan yo`li, urf odatlari, marosimlari, do`stlik, qaxramonlik, vatanga muxabbat, adolat to’g’risidagi keng tushunchalar to’g’risida ma’lumotga yega. «uzoq davom yetgan kattik mafkuraviy tazyikka karamay, O`zbekiston xalqi avloddan-avlodga o’tib kelgan uz tarixiy va madaniy kadriyatlarni xamda uziga xos an’analarni saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi»,-degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, jumladan, musiqiy tarbiyani ajdodlarimiz asirlar madaniyatida yaratgan musiqiy merosini o’rhanishdan boshlashsak yomon bulmas yedi. Chunki akademik Kabalevskiy aytganlaridek

«Xalq qo'shiqlari xalqning uziga xos yenseklopediyasidir». O`zbek milliy musiqasini yaxshi biladigan kompozitor N.Mironov shunday degan yedi. «O`zbekiston mexnatkashlari urtasida she'riyatga musiqaga va boshqa san'atlarga ishtiyk zur. Butun o'zbek xalqining xarakterlaridagi bu xissiyot juda yakkol kuzga tashlanadi. Deyarli xar bir xonadonda dutor, tanbur yoki nay kabi sevimli asboblarini topish mumkin. O`zbeklar uzlarining shoir va adiblarini, shuningdek xofizlarini, ayniksa xushovoz ashulachilarini juda kadrlaydilar», -deb baxolagan. O`zbek xalq marosimlari, yiginlari, bayramlari, shodiyonalari musiqa va qo'shiqsiz utmas, doimo bu yiginlarda xalq qo'shiqlari, xofizlari ishtirok yetib, xalqka estetik zavk, kishi ruxini gamdan xalos yetib ularga mexnat bobida kuch va ma'naviy ozik baxsh yetar yedi. Musiqa insoniyat ma'navit tafakkurlarining buyuk ne'matlaridan biridir. Xar bir xalqning ma'naviy madaniyatida yerishgan yutuklari uning adabiyoti va san'atida, binobarin musiqa san'atida betakror ijodi namunalari bilan xam ye'tirof etiladi. Shu ma'noda xalqimiz uzining yuoy milliy va mumtoz musiqasi, zamonaviy ijro san'ati bilan jaxon xalqlari madaniyatida uzining munosib urnini yegallab kelmokda. O`zbek milliy madaniyatining mustaqillik va istiqlol davrida yuqori olib chukqilariga kutarilishi garbda ma'lum mikdorda yaxshi yashayotgan o'zbeklar o`zining tilini, madaniyatini yukotmokda degan yolgon, buxton gaplarga keskin zarb berildi. O`zbek xalq qo'shiqlari tuzilishi jixatidan sodda va oddiy bo`lib, qo'shiq so`zlari xam ma'nolidir.

Xalq qo'shiqlari o'zbek kompozitorlari ijodida asosiy o'rin topib musiqa san'atining qaysi janrida bo`lmasin, ya'ni operadami, baletdami, simfonik asarlaridami, yoki estrada san'atidami salmoqli ahamiyat kasb etib, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida samarali vositalardan bo`lib kelmoqda. O`zbek xalq qo'shiqlarini, ya'ni ajdodlar merosini atroflicha o'rganish davr talabidir. Chunki o'zbek xalq qo'shiqlari xalqning ma'naviy xazinasidir.

## I.Bob. O`zbek xalq qo'shiqlari xalqning ma'naviy hazinasidir.

Xalq ma’naviy boyligining ko`zgusi bo’lgan o’zbek xalq qo’shiqlarining sarchashmalari tarixan olislardan boshlanib, xalq ijtimoiy xayoti bilan uzviy bog`liq xolda rivojlanib keldi. Xalq qo’shiqlarining ilk ko’rinishi inson ongining rivojlanishi natijasida mexnat jarayonida vujudga kelgankim, mexnatkash xalq mexnat unumidan va tabiat guzalliklaridan ilxomlangan xolda uzlarining qo’shiq va cholg’u ohanglarining ijod kilganligi va bu musiqaviy meros hozirgi vaktda o’zbek musiqa madaniyatining rivojlanishi uchun tub asos bo’lishi bilan birga jaxon xalqlarining xam sevimli qo’shiqlariga aylanib kolganligini guvoxi bulamiz. O`zbek xalq musiqa meros bilan tanishar yekanmiz, biz mexnatkash xalqning tarixni bosib utgan yo’li, urf-odatlari, marosimlari, dustlik-kaxramonlik, vatanga muxabbat, sevgi va sadokat, adolat to’g’risida keng tushunchalar to’g’risida ma’lumotga yega bulamiz. «Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O`zbekiston xalqi avloddan-avlodga o`tib kelgan o`z tarixiy va madaniy qadriyatlarini xamda o`ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffak bo`ldi» degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, jumladan musiqiy tarbiyani ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan musiqa merosini o’rhanishdan boshlasak yomon bo’lmas yedi.

Hozirgi kunda o’kuvchilarni xalq musiqasi, xususan xalq qo`shiqlari bilan yakindan tanishtirib borishning yeng makbul yo’li, bu umumta’lim maktablarida faoliyat ko’rsatayotgan badiiy havaskorlik to’garaklaridir. Bu faoliyatda o’kuvchilar san’atning turi xil ko’rinishlari bilan faol mulokatda bo’ladilar, ularda go’zallikka va uni yaratishga xayrixohlik paydo bo’ladi. Bu ayniksa maqsadli mashg’ulotlar jarayonida yanada samarali tarzda kechadi va fanlarning o’zaro aloqasini yo’lga qo’yishda zarur omil bo’ladi. Hozirgi kunda san’at bilan, uning yeng ommaviy turi bo’lgan qo`shiq san’ati bilan deyarli har kuni mulokotda bo’lmaydigan kishini tasavvur qilish kiyin. Bunda radio va televedeniyening roli bekiyosdir. Lekin qo’shikni shunchaki tinglash bilan, qo`shiqlarni rejalashtirilgan izchil mashg’ulotlar jarayonida tinglash, ijro yetish, u hakidagi kerakli ma’lumotlar bilan, mohir ustozlar bilan mulokot kilib borishning o’rtasida katta fark bor. Shuning uchun ham tadkikotning ushbu kismida umumta’lim maktablarida

musiqa darslari faoliyati, ularda xalq qo`shiqlariga ye’tibor, ulardan yoshlarni estetik tarbiyasida foydalanishga  уыnaltirilgan pedagogik faoliyatning izchil hamda maqsadga muvofik olib borilishi ijobiy samaralar berishi ilmiy  asoslashga harakat kilindi. Xalq qo`shiqlarining tarbiyaviy ta’sir imkoniyatlari ko’plab кыo’shiklar misolida tahlil kilindi.

Umumta’lim maktablari musiqa darslarida xalq qo`shiqlari bilan ishlash, ular vositasida o’kuvchilarni estetik madaniyatini shakllantirish borasidagi vazifalarning mohiyatini  nazariy va amaliy jihatdan ochib berishga asosiy ye’tibor karatildi.

Qo’shiqlarning tarkibiy tuzilishi, musiqiyligi, ijrosi, yoqimli ovoz, qo`shiq matnining g’oyaviy mazmuni haqidagi ma’ruzalar, suhbatlar, taniqli xonanda va hofizlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar muayyan maqsadli faoliyat bo’yicha samarali ish shakl va usullari sanaladi.

Xalq qo`shiqlari juda keng kamrovli tushuncha bo’lib, ularga murojaat kilganda respublikamizning o’ziga xos hududiy ijrochilik uslublari, ularni o’ziga xos jihatlarini unutmaslik, etnografik va an’anaviylik holatlariga ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozimligi, bu sohada ish olib boruvchi mutaxassislardan nafaqat kasbiy mahorat, ayni vaktda milliy musiqa san’atimiz, milliy kadriyatlar, xalq an’analari mohiyatidan yaxshi xabardor bo’lishni takozo yetishi, shu o’rinda xalq qo`shiqlarining mavzulari ularning asosiy turlari bo’yicha tasnifi keltirilgan. Xalq qo’shiklarining tarmoklari, janrlari, ko’p bo’lib, ularni yetakchi turlari bo’lmish yalla, ashula, katta ashula, lapar, terma, mehnat кыshiklari, marosim qo`shiqlari, allalar, bolalar folklor qo`shiqlari va mumtoz qo`shiqlarga misollar keltirildi. Yosh avlod tarbiyasi, kelajak vorislarini tayyorlash dolzarb masala ekanligi “Ta’lim to’g’risida” gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dastur”i qonunlarida etirof etilgan. Qobiliyatli va iste’dodli yoshlarni to’g’ri tarbiyalash, jamiyatda o’z o’rniga qo’ya bilish ustoz san’atkorlardan katta ma’sulyatni talab etadi.

Shu bois soha mutaxassislar zamon talabi darajasida ish yuritib, vazifalariga jiddiy qarashlari lozim. Shu bilan birga ta’lim tarbiyani  birga olib boorish uchun

darslik ham muxim o’rin tutadi. Sa’nat yo’liga qadam qo’ygan talaba o’quvchilar nazariy va amaliy bilimlarini darslik orqali egallaydilar.

Shulardan biri bo’lgan dirijorlik san’ati o’zining ko’p qirraliligi bilan ajalib turadi. Bu san’at yo’nalishi boshqa san’at turlaridan ancha yosh bo’lishiga qaramay ko’pchilikda qiziqish uyg’ota oldi.

Dirijor – asar musiqasini ijodiy rivojlantiruvchi, uning ruhi bilan yashovchi, mashaqqatli, sabr-bardosh talab qiluvchi, ma’suliyatli kasbdir.

Bir qaraganda osondek ko’ringan dirijorlik san’atining naqadar mushkul ekanligini hamma ham tushunib yetavermaydi.

Bu kasbning murakkabligi shundaki, orkestrdagi cholg’ularning nafaqat mukammal ijrosi, balki uning sirlarini ham bilishi kerak. Chunki ana shu cholg’lar uyg’un bo’lgandagina ajoyib kuylar dunyoga keladi.

Dirijorlik – bu qo’shiq aytish, royal skripka yoki boshqa cholg’uni chalish kabi ijrochilik san’atidir. Shu bilan birga dirijorlik ijrochilik san’atining boshqa turlaridan jiddiy farq qiladi: agar musiqachilar jonsiz jismda musiqa ijro etsalar fortepiano, skripka, nay, rubob va h.k. va ularning ijrolari cholg’uning sifati hamda o’zlarining mahoratlariga bog’liq bo’lsa dirijor ko’plab bir-biridan farq qiluvchi insonlar bilan ishlaydi.

## 1. Musiqiy ta’limda dirijorlik san’atining tutgan o’rni va dirijorlik san’ati tarixi.

***«Dirijor ko'rish va eshitish san'atiga ega bo'lmog'i lozim, u yengil va ayni paytda kuchli bo'lishi darkor, u sozlar kompozitsiyasini, ularning tabiati va qamrovini his qilishi, partiturani o'qiy olishi, shular barobarida alohida iste'dod egasi bo'lishi muhim... U yana o'zi va orkestr o'rtasida ko'zga ko'rinmas aloqa o'rnatilishi uchun kerak bo'lgan yana boshqa, deyarli noaniq xususiyatlarga ham ega bo'lishi shart. Agar dirijor orkestrga o'z xissiyotlarini yetkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, unda u orkestr ustidan «hukmronlik» qila olmaydi, unga o'z ta'sirini o'tkazishdan maxrum bo'ladi. Bu xolda u orkestrning dirijori emas, balki oddiygina «takt uruvchi» ga aylanib qoladi, shunda ham agar umuman taktni to'g'ri belgilash va ajratishni uddalay olsa!»***

**Gektor Berlioz.**

«Dirijor» so'zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi: nemislar «Dirident, Italyanlar «Diridente», Fransuzlar «Shef orkestre», Inglizlar «Konduktor» deydilar. Har qaysi tilda ham bu so'z rahbar, boshliq, direktor ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, dirijyor bu - orkestr jamoasining raqbaridir. Uning asosiy vazifasi - bu jamoaning qayoti faol va yaxshi tashkillashtirilgan bo'lishini nazorat qilishdan iborat. Dirijyor sozandalar musiqiy asarni uyqunlikda ijro etishlari, ular asarni birga boshlab, birga tugatishlari, o'z cholqularini bir maromda chalishlari, pauzalarni vaqtida ushlab, bir maromda kuy boshlashlarini ta'minlaydi. Dirijyor sozandalar ijrosini yagona ritm va tempga moslashtirishni, ularni ijroga yo'naltirish uchun belgi berishi lozim.

Darvoqe, uzoq vaqt davomida ko'pchilik, dirijor vazifasi faqat orkestrning yagona ritmdagi ijrosini ta'minlashdan iborat, deb tushunar edi. Aslida esa dirijorlik kasbi juda murakkab va qiyindir. U juda katta aqliy va asabiy mehnat, doimiy jismoniy quvvat talab qiladi. Demak, dirijor mustahkam salomatlikka va chidam hamda bardoshga ega bo'lishi zarur. Uning uchun zarur bo'lgan o'zini qo'lga ola bilish xususiyati ham salomatlik va asab tizimining ahvoliga boqliq.

Dirijor 100 dan ortiq musiqachilar faoliyatining asosiy muvofiqlashtiruvchisidir. Uning roli qisman rejissyor roliga o'xshab ketadi. Rejissyor - teatrdagi saxna asarining badiiy rahbari, spektaklni tayyorlash borasidagi barcha ishlarning boshini birlashtirib turadi. Dirijorning qam bevosita orkestrning rejissyori deya qarash mumkin.

Lev Tolstoyning «San'at o'zi nima » deb nomlangan mashxur maqolasida shunday so'zlar bor: «San'atning faoliyati - bir marotaba boshdan kechirgan hissiyotni o'zida tiklab, so'z orqali ifoda etilgan harakat, bo'yoq, tovushlar, timsollar yordamida ushbu hissiyotni boshqalar ham boshdan kechira oladigan tarzda yetkazib berishdan iborat.

San'at - bu insonga xos shunday faoliyat turiki, uning vositasida bir inson o'z boshidan kechirayotgan hissiyotlarni tashqi belgilar orqali boshqalarga yetkazadi, ular esa bu hissiyotni o'z qalblariga ko'chiradilar, dildan xis etadilar». Bu e'tirof dirijorlik san'atiga bevosita taalluqlidir. Bunda dirijorning emotsional ta'sir kuchi, uning boshqalarga hissiyotlarni yetkaza bilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo u o'z hissiyoti bilan orkestrni rom etishi, so'ng esa u bilan birga tinglovchilarni sehrlab qo'yishi darkor. Aynan emotsional ta'sir ko'rsata olish hususiyati ko'p jihatdan dirijorning iste'dodi, uning artistlik mahorati va ishi sifatini belgilaydi. Boshqalarga o'z hissiyotini yetkaza bilish qobiliyati dirijor ijodining mustaqilligi, qolaversa - ilhom belgisidir. Tom ma'nodagi ilhom - bu emotsional samimiylik, chuqur intellekt, san'atkorona temperament, idrok, erkinlik va intizom, o'zini boshqarish, yuksak mahorat, va nihoyat bu haqiqiy yorqin iste'dod hamda aqliy mehnat demakdir. Shu o'rinda ajoyib dirijor A. M. Pazovskiyning «Dirijor qaydlari» kitobidan Artur Toskanini haqidagi quyidagi mulohazalarni keltirish joiz:

«Shaxsan mening fikrimcha, Arturo Toskanini zamonamiz dirijorlik san'atining eng yuksak cho'qqisiga erishgan insondir. Uning daholigi, ulkan iroda kuchi, romantik insonga xos individuallik va hissiyotchanligi, muallif matnini yorqin va o'ziga xos tarzda o'qiy bilishi, o'zining artistlik qobiliyatini kompozitor

shaxsiyati va musiqasi bilan uyg'unlashtira olishi, bu musiqaning obrazliligini yanada chuqurlashtirib, uning shaklini kamol toptirishdan iboratdir».

Shu bois dirijorning o'zi avvalo musiqiy asarning g'oya va mohiyatini chuqur anglashi, shundan so'nggina uni orkestrga yetkazib, musiqachilar uning maqsadlarini amalga oshirishlariga erishishi lozim. Dirijor partituradagi unsiz nota belgilariga hayot ato etishi lozim. Bunda u musiqani tog' ri talqin etishi zarur. O'z ishini yaxshi bilmaydigan yoki iste'dodsiz dirijor tomoshabin oldida hattoki eng ajoyib musiqiy asarni ham barbod qilishi mumkin. Ayniqsa, asar yangi, xali ko'pchilikka notanish asar bo'lsa. Shuning uchun yangi asarni ijro etishda dirijor juda ehtiyot bo'lishi kerak. Chunki uni avval eshitmagan tinglovchi dirijor xatolarini bastakorniki deb o'ylashi mumkin.

Albatta, har qanday eng mahoratli, yuksak iqtidor sohibi bo'lgan dirijor ham yomon musiqani yaxshi qilolmaydi. Biroq musiqiy asarning noyob tomonlarini ochib berish, yoki muallif g'oyasini buzib ko'rsatgan holda, bunday hususiyatlarni yashirish - faqat dirijorga bog'liq. Shu bois Rimskiy-Korsakovning «Dirijorlik – qorong'u ish» degan iborasi qaysidir ma'noda shu kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Garchi o'sha paytlardayoq Rimskiy-Korsakovga javoban, Ippolitov-Ivanov «Bu ish faqat dirijyorlik texnikasi asoslari bilan tanish bo'lmaganlargagina «qorong'u ekanligini» aytgan bo'lsada, bunday asoslarni nazariy jihatdan ishlab chiqish ishi to'liq yakunlangan deyish qiyin. Barcha musiqachilar kabi, dirijor ham musiqaning elementar nazariyasini, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar taxlilini yaxshi bilishi kerak. Shuningdek u inson ovozi haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, cholg'ushunoslik, musiqa tarixi, estetika va boshqa kerakli sohalardan bohabar bo'lmog'i lozim. Dirijor orkestr yoki xorga nisbatan rahbar, o'qituvchi, instruktor bo'lishini ham unutmasligi kerak. Bu mezonlar dirijor hox yosh, hox qari, tajribali yoki o'z faoliyatini endi boshlayotgan bo'lsin - barchasiga barobar tegishlidir. Albatta, dirijorlik tajribasini amaliy faoliyatsiz to'plab bo'lmaydi. Biroq, bu faoliyatdan oldin, ya'ni boshlovchi dirijor orkestr yoki xor qarshisida turish huquqini qo'lga

kiritguncha qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p. Buning uchun endi faoliyat boshlayotgan dirijor alohida qobiliyatga ega bo'lishi kerak, bu - o'ta muhimdir. Bundan tashqari u yaxshi musiqachi bo'lishi, ya'ni musiqiy madaniyat va bilimga ega bo'lishi lozim. Musiqa sadolarini yaxshi ilg'ash, ritm va temp hissi, musiqiy shakl va uslubni tushunish qobiliyati, musiqiy did, me'yor hissi, musiqiy xotira, temperament va tasavvur kabi ijrochi-musiqachilarga xos xususiyatlardan tashqari dirijor yana bir qator alohida jihatlarga ham ega bo'lishi darkor. Bu avvalo qo'llarning maqsadga muvofiq va ohista harakatlari hamda shunga yarasha yuz ifodasi yordamida orkestr yoki xor a'zolariga musiqiy asarning mohiyatini yetkaza olishdir. Bunda dirijor o'zini nazorat qila bilishi, har qanday vaziyatda tezkor va ifodali bo'lishi lozim. Bularning bari dirijorga musiqa asarlarini tinglovchi oldida ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir vaziyatlardan muvaffaqiyat bilan chiqib ketishi uchun kerak bo'ladi. Dirijorda tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, intizomlilik, tashkilotchilik iste'dodi uyg'unlashgan bo'lib, shu bilan birga jamoaga nisbatan hushmuomalalik, osoyishtalik va chuqur his eta bilish quvvati namoyon bo'lishi kerak. Orkestr yoki xor bilan yaxshi ishlash uchun dirijor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik, halollik va printsipiallik kabi xususiyatlarsiz, haqiqiy dirijorni tasavvur qilib bo'lmaydi.

**1.2. Xalq qo'shiqlarini bolalar ongiga singdirishning shakl va usullari.**

Mustaqil Respublikamizning barcha shaxarlari rivojlanish jaxonning ilgor mamlakatlarida qo`llanilayotgan yangi texnologik jarayonlarni uzlashtirish bilan bir davomida oqilona foydalanish ko`lami va sifatiga xam bog`liq. Zero u millat va jamiyatning milliy mafkurasini shakllanishing tarbiyaviy kurolidir. Albatta, yeski mafkuradan kutil ish yangisini tez da ishlab chikarish va jamiyat xayotining barcha jabxasiga singdirish yengil ish yemas. Milliy istiklol mafkurasi milliy madaniyat, tarbiya tizimi oldiga yosh avlodni milliy madaniyat milliy kadriyatlar zamirida shakllanadi. Bu esa ta'lim tarbiya uzida prezidentimiz I.A.Karimovning kuyidagi suzlarini keltirish o'rinli bo'ladi. «Chukur isloxotlarni amalga oshirish, bozor iktisodini amalga oshirish, birinchi

navbatda potensial ularning kasbi jixatidan tayyorgarligiga boglik bo'ladi. Bu esa butun ta'lim va madaniyat tizimining tu b dan islox qilishni takazo yetadi. Chunki ayni bilimdonlik va yuqori madaniylik ozodlikdan xammaning baxt-saodati yulida foydalanish imkonini beradi. Avvalgi yillarda ta'lim tizimining jaxon svilizasiyasining ilgor yutuklaridan va xalqimizning tarixiy il diz lari dan ajralib kolgan yedi». O`zbek xalq qo'shiqlarida Vatan tabiat insoniy fazilatlardan xalollik tufayli milliy tarbiyaning mazmuniga mosdir. Endilikda xalq qo'shiqlarining musiqa pedagogika o`quv dasturlariga, xavaskorlik tugaraklari faoliyatiga olib kirish, shu orkali yoshlarimizning dunyo karashlarini shakllantirish bugungi kunning ijtimoiy talabidir. Shuni e'tirof etish kerakki o'zbek xalq ashula va qo'shiqlari negizida xalq og`zaki ijodi yoki ayrim shoirlar ijodiga mansub adabiy matn yotadi. Bundan tashqari hozirgi zamon bastakorlari xalq qo'shiqlari ohangida ijodiy foydalanib kelishmoqda. Yuqorida ta'kidlab o`tilgan kabi ijodiy xislatlarni ulug`lab, salbiy illatlarni qoralovchi matnga mos uyg`unlashib, inson xususiyatiga ijobiy ta'sir etish jixatidan tarbiyaning kudratli vositalaridan biriga aylandi. Mabodo qo'shiq musiqasi aytilganda xam (katta ashula) musiqaning uzini uning bevosita yeshitilmas ta'siri bilinib turadi. Bu esa ijrochilarni xam, tinglovchilarni xam birday tarbiyalashga uz ta'sirini kursatadi. Ajib she'riy miyeralar sexrli ohanglar bilan yugrilgan qo'shiqlardagi xis tuygular inson kalbiga yezgulik va guzallik xissiyotlarini uygotadi. Shuning uchun xam, xalq qo'shiqlaridan, ularning ma'naviy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi. «Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida ta'lim tarbiya soxasi bilimda milliy istiklol goyasini xalqimiz ongiga singdirish ishlarini estetik tarbiya bilan birga olib borishga ye'tibor karatilgan. Xar yil Respublika bo'yicha bir kator madaniy-ma-rifiy tadbirlarni utkazib turish, chunonchi «Ashula bayrami», «San'at bayrami» xamda ukituvchilar tayyorlash dasturlariga estetik tarbiya bo'yicha bir qator mavzular kiritish yuzasidan qarorlar chiqariladi. Ularning samarasi ularoq «Nafosashunoslik» kurish vujudga keldi. Ushbu ishlar bevosita pedagog kadrlar tayyorlashga muljallashtirilgani bilan kata ahamiyat kasb yetadi. Ko`pgina oliy o`quv yurtlarida tadkikotimizning bosh

mavzusi bo’lgan juda xam suyet, nochorligini nima bilan izoxlash mumkin. Avval xalqning milliy kadriyatlariga nisbatan bo’lgan noto’g’ri bo’lgan siyosati- xavaskorlik to`garaklarida faoliyat kursatayotgan maxsus ta’lim, yetarli tajribaga xalq musiqasi mumtoz ashula va qo’shiqlardan yetarli bilim va malakaga yega bo’lgan raxbarlarning uzligi;

- O`zbek xalq qo’shiqlari bo’yicha maxsus qo`llanma, dastur, metodik tavsiyalarning yukligi.

O`zbek xalq qo’shiqlariga maktab va maxsus ukuv yurtlari darsliklarida yetarlicha o’rin ajratilmaganligi va zaruriy tuplamlarning yo`qligi; -Musiqa estetik tarbiyaga xalq qo’shiqlari mavqeini belgilovchi pedagogik nazariyani ishlab chikilmaganligiga ko’rinadi. Ushbu tadkikotimizga kursatib utilgan vazifalarga tayinlangan xolda o’zbek xalq qo’shiqlarini tarbiyadagi mavkeini, uzini va ahamiyatini, uni tarbiya tizimida qo`llanilishini shakl va usullarini ishlab chikarishga intildik. Qo`shiqchilik yeng ommaviy va ta’sirchan san’at turlaridan bulib, xar bir qo’shiqda u yaralgan davrning uchmas izi bor. Tarixiy, mumtoz faolliklar sirasiga kiruvchi qo’shiq namunalari estetik zavq baxsh etish bilan birga yoshlarning xalq tarzini turmush tarzini, urf odatini belgilaydi.

## II. BOB: Musiqa mashg’ulotlarida xalq qo’shiqlarini o’rgatishning o’ziga xosligi

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, barcha ma’naviy qadriyatlarimiz kabi milliy merosimiz xam chuqur o’rganishimiz uchun keng yo`l ochildi. «Shark taronalari» xalqaro musiqiy festival yeng avvalo, musiqiy madaniy axloqlarni yo`lga quyish orqali turli mamlakatlar xalqlarni do`stlashtirishga xizmat qilishni ko`zda tutgan edi. Shu talablardan kelib chikkan xolda 1997 yildan boshlab Samarkand shaxrida xar 2 yilda bir marotaba utkazilayotgan xalqaro «Shark taronalari» musiqa festival xalq musiqasi an’analarini tiklashda milliy rux milliy kiyofani shakllantirishda va mustaxkamlashda muxim ijtimoiy-madaniy vazifasini ado yetadi. Xalq musiqasi xalqning manaviy boyligidir. U ni kuz

korachigidek asrash, rivojlantirish, kelgusi avlodlarga koldirish zarurdir. Xalq qo’shiqlari uzining musiqiy professional ko’rinishi bilan kup kismli vokal-cholg’u asari bulmish makomlar bilan xam uzviy boglikdir. Musiqa san’ati xalq ijodining bir kisminigina yemas inson ruxining ped agogik va raxnamosidin. Musiqa inson dunyokarashini shakllantiradi. Uz kuchiga ishonch, ruxini tiklash, vaktinchalik muvaffakiyasizliklar oldida uzini yukotib kuymaslik kabi xissiyotlarni tarbiyalaydi. Musiqa kishilarni birlashtiruvchi kuch. Nafis kuy tinglayotgan kishi ijrochi kalbidan kelayotgan kishilar galayonlariga sherik bo’ladi. Musiqa asarining goyaviy idealini kuz oldida gavdalantiradi. Musiqa kishining xayotiga chankokligiga urgatadi. Mexnat unumini oshiradi. Insonning xayotiga bo’lgan siyosiy, estetik karashlari shakllanishida muxim rol uynaydi. Insin musiqasiz yashashini tasavvurga sigdira olmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki musiqa merosimiz xazinasidagi turli janrga mansub asarlar o`z milliy xususiyatlarini saklagan xolda zamon bilan xamnafas bulib yashamokda. Binobarin musiqa san’atining tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish yulida samarali ishlar yulga kuyilgan. Musiqa va tarbiya bir-biri bilan uzviy boglik xodisa san al ad i. Negaki «Urtar» yoki «Munojot»ni sevib tinglagan odam xech kachon birovga yomon kuz bilan bokmaydi. Demak musiqa odamda insoniylik, samimylik, birodarlik tuygusini kuchaytira oladigan mujizakor kuch. Musiqaning yaratilishi va tarakkiyot xalqning ijtimoiy-iktisodiy turmush tarzi falsafiy estetik karashlari bilan boglikdir. Xalqning yaxshi kunlari xam yomon kunlari xam kuy-qo’shiq bilan birga utadi. Xalqning donishmandchiligining go`zal ko’rinishi bo’lgan o’zbek xalq musiqa merosi yoshlar dunyokarashiga tez ta’sir yetuvchi muxim tarbiya vositasi sifatida keng urganilmogi davr talabidir. Xususan o’zbek xalq musiqa merosida qo’shiq eng ommaviy va ta’sirchan janr bulib o`ziga xalq psixologiyasi ruxiyatini pedagogikasining eng ilg`or g`oyalarini mujassamlashtiradi xalq qo’shiqlarida xalq xayoti va dunyoqarashi xaqida mukammal ma’lumot mavjudki, bu ohanglarni idrok etish uchun ushu xalq ruxiyatini tushunish kerak.

Repetitsiyalarda dirijor orkestrni u yoki bu musiqiy asarni ijro etishga tayyorlaydi. Bunda har bir orkestr yoki xor jamoasi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish zarur. Shu bois dirijor oldida turgan vazifalar ko'p bo'ladi-yu, unga ajratilgan vaqt esa kam bo'ladi. qisqa vaqt ichida orkestrga kerak bo'lgan hamma narsaga ulgurish lozim. Biroq, dirijorning o'zi ham repetitsiyaga muxtojku, ayniqsa agar orkestr bilan yangi musiqiy asarni birinchi bor mashq qilayotgan bo'lsa. Agar dirijor faqat orkestr uchun qayg'urib o'zi ustida ishlash haqida unutib qo'ysa, ya'ni o'zini nazorat qilishdan to'xtasa bu uning xatosidir. Agar dirijor o'zi haqidagina o'ylab, orkestrni tashlab qo'ysa, undan-da noto'g'ri yo'l tutgan bo'ladi. Bordiyu, dirijor orkestr haqida o'ylamasa, o'zining dirijorligi haqida unitib qo'ysa va faqat shunday bo'lishi kerakligi uchungina, majburan ishlasa yoki xotirasini sinash maqsadida yoddan dirijorlik qilib, o'z harakatlarining «go'zalligi»ga maqliyolik tuyqusi bilan yashasa bundan yomoni bo'lmaydi.

Hikoya qilishlaricha, Rixard Vagnerdan keyingi davrlarning eng buyuk dirijorlaridan sanalgan Gans Rixter (1843-1913), Vena opera teatrining bosh dirijori paytida, repetitsiya vaqtida kontrabaschining xatosini ko'rib, unga qo'pol tarzda tanbeh bergan. Shunda musiqachi: «Siz haqsiz, men xato qildim, biroq bunga qo'pol tanbeh bermasangiz bo'lardi. Agar sizning tayoqchangiz uchida qo'ng'iroqchasi bo'lganda bormi, biz ham ba'zida noto'g'ri harakat tovushlarni eshitgan bo'lardik!» Darhaqiqat, orkestr a'zolari dirijor xatolarini «eshitib» turadilar, lekin doim emas. Dirijor xatosini faqat uni kuzata turib, noto'g'ri harakatini ko'rib qolgan kishigina anglashi mumkin.

O'z vaqtida Gektor Berlioz uquvsiz pianinochi yoki xonanda ijrosiga chidash mumkin, lekin asar maromini va orkestr jarangini his qilmagan, uyqunlikni anglamagan, musiqachilarga halal berayotgan dirijor qancha tashvish orttirishini tasavvur qilish qiyinligini ta'kidlab o'tgan edi. Shu bois, musiqiy va kasbiga xos qobiliyatlardan tashqari dirijor tartibli inson bo'lib, reja bo'yicha ishlashi, repetitsiya maromi va muxitini to'g'ri tashkil eta bilishi lozim.

Ko’rinib turibdiki, dirijorning vazifalari juda ko’p va mas'uliyatli, Xo’sh, musiqa san'ati oldida shunchalik katta mas'uliyatli bo’lgan san'atkor qanday fazilatlar egasi bo’lishi kerak. Dirijor va orkestr o’rtasida «ko’zga ko’rinmas aloqa» vujudga kelishi uchun zarur bo’ladigan intellektual, badiiy-ijodiy, professional va insoniy fazilatlarning ko’pqirrali majmuasi nimalardan tarkib topadi. Bu avvalo - keng ko’lamli musiqiy bilimlardir. Dirijor ko’p musiqiy asarlar - ularning shakli, turli davrlarga xos musiqiy tilning xususiyatlarini bilishi kerak. Orkestrning har bir musiqachisi qanday muammoga duch kelishi va uni bartaraf etish yo’lini tushunish uchun orkestrning har bir musiqa cholg’usini yaxshi bilishi shart. Dirijor orkestr partiturasini erkin o’qiy olishi, musiqa tarixi soxasida keng bilim va dunyoqarashga ega bo’lishi kerak. Bundan tashqari, agar tartib bilan sanab o’tsak, «iste'dod» deb atashga o’rganganimiz - asosiy ifoda vositalariga kiruvchi musiqiy eshitish, xotira, temperament, tasavvur qilish qobiliyati, musiqiy shakl va ansambl hissi, urg’u sezgirligi, qo’llar va yuzning tabiiy harakatchanligi, bularning hammasi dirijorga orkestr a'zolariga o’zining badiiy maqsadlarini yetkazishga yordam beruvchi vositalardir. Xuddi shu fazilatlar kabi, dirijor qalbida doimo metr va ritm hissiyoti yashaydi. Bu hissiyot musiqaga shakl, hayot, harakat va rivojlanish beradi, Agar dirijorda texnika iste'dodi bo’lsa, unda uning egiluvchan qo’llari va yuzining, ayniqsa ko’zlarining ma'nodor ifodasi bilan uyg’unlashsa, dirijorning ajoyib va betakror «tili»ga aylanadi. U ana shu tilidan qanchalik unumli foydalansa, o’zining badiiy maqsadlariga shunchalik tez va aniq ayta oladi. Agar dirijorning texnikasi yomon bo’lsa, dirijorga musiqaning nozik qochirimlarini, o’zgarishlarini ifoda etishga xalal beribgina qolmay, unga taktni bir maromda chalishga imkon g’am bermaydi.

Bazi dirijorlarning qo’l qarakatlari erkin va plastik bo’lsada, ijrochilar ularni baribir tushunmaydilar. Buni shunday izohlash mumkin, ular o’zlarining chiroyli qo’l harakatlari bilan ma'no ifoda eta olmaydilar. Shu bois dirijorga qo’l harakatlarining tashqi chiroyi emas, balki ularning ma'nodorligi va ishontiruvchanligi muhim. Buning eng yaxshi isboti sifatida buyuk rus kompozitori

Pyotr Chaykovskiyning ajoyib dirijor Artur Nikish haqida quyidagi so’zlarini keltirish joiz: «Uning dirijorligi, - deb yozadi P. I. Chaykovskiy, - Gans Fon Byulovning ta'sirchan va o’ziga xos usuliga mutlaqo o’xshamaydi, Fon Byulov qanchalik harakatchan, notinch va ko’zga tashlanuvchi harakatlari ta'sirchan bo’lsa, janob Nikish shunchalik xotirjam va nafis, ortiqcha harakatlardan xolidir. Shu bilan birga janob Nikish hayratlanarli darajada kuchli, hukmronlik tuyg’usiga to’liq va o’ta irodalidir. U bamisoli dirijorlik qilayotgandek emas, balki qandaydir sirli ilhom ta'sirida harakatlanayotgandek, ohanglar og’ushida suzayotgandek tuyuladi kishiga. U diqqatni qo’p ham jalb qilavermaydi, chunki e'tiborni o’ziga tortmaslikka harakat qiladi. Vaholanki, orkestrning ulkan jamoasi, mahoratli ustaning qo’lidagi bir cholg’udek, uning hukmida ekanini, to’liq bo’ysunayotganini sezasiz. Orkestrni boshqarayotgan bu rahbar - 30 yoshlar chamasidagi rangpar, chaqnoq ko’zli yigit sehrli kuchga egadek tuyuladi. Bu kuch ta'sirida orkestr, goh minglab Ierixon karnaylaridek gumburlaydi, goh kaptardek mayin ovoz chiqaradi, gohida esa sehrlab qo’yuvchi sirlilik og’ushiga sizni batamom bog’lab qo’yadi. Bularning barchasi tinglovchilar o’ziga bo’ysinuvchi orkestr ustida xotirjam hukmronlik qilayotgan bu kichkinagina kapelmeysterga e'tibor ham bermaydigan tarzda amalga oshiriladi. Menimcha, bu - ideal!».

Zamonaviy dirijorlik tili - yuz ifodasi va qo’l harakati tili sifatida insonning ko’p asrlik tajribasi bilan sinalgan muloqot vositasidan foydalanib, shakllangan. qo’l harakati va yuz ifodasi tili hammaga tushunarli, serma'no va boydir. U darhol qaytariluvchi emotsional javobga sabab bo’ladi. Qo’l harakatlari katta hissiy - obrazli ifoda kuchiga ega: ular jaxldor yoki muloyim, so’roq yoki tasdiqlovchi, iltimos qiluvchi yoki rad etuvchi, da'vatkor yoki taklif qiluvchi, kutib oluvchi yoki hayratlanuvchi, ogohlantiruvchi yoki tahdid qiluvchi bo’lishi mumkin va xokazo. Ijro etilayotgan musiqaning obrazli - emotsional mohiyatiga qarab, u yoki bu ma'noli harakat tanlanadi.

Turli dirijorlarda qo’l harakatlari va yuz ifodasi (mimika) ning nisbiyligi turlicha. Aytish mumkinki, mimika asosan kerakli emotsional (hissiy) holatni, qo’l

harakatlari esa ijroning texnik detallarini boshqaradi. Mimika - dirijorning obrazli firklashi naqadar yorqin va aniqligini namoyon etuvchi omildir. U - ma'nodor qo’l harakatining doimiy hamrohidir. Zero, qo’l harakatiga hamrox bo’lgan nigoh uni ruhlantiribgina qolmay, uning ta'sirini kuchaytirib, birinchi navbatda bu harakat mo’ljallanganini qam bildiradi. Agar yuz ifodasiz bo’lsa, xatto eng aniq va nozik qo’l harakati ham kerakli badiiy ta'sirga ega bo’la olmaydi. Hattoki ba'zi xollarda mimika qo’l qarakatini ortda qoldirib, asosiy ma'no kasb etadi. Shu o’rinda «Yosh gvardiya» («Molodaya gvardiya») jurnalida keltirilgan bir qiziqarli faktni eslash joiz (1966, 10-son 180 bet): Amerikalik Din Dikson ismli dirijor bir kuni chap qo’li va o’ng yelkasini shikastlab olibdi. Navbatdagi kontsertni qoldirmaslik uchun u faqat ko’z va qoshi harakati yordamida dirijorlik qilgan. Kontsertdan so’ng musiqachilar o’z dirijorining yuz ifodasini yaxshi tushunganliklarini bildirganlar. Ana shu narsalarning barchasini bilish uchun qancha o’qish kerak. Odatda dirijorlik kasbini biron bir musiqiy cholg’uni yaxshi chala oladigan musiqachilar egallaydilar. Ba'zida esa dirijorlikka orkestr artisti yoki yakkaxon sozanda sifatida uzoq yillar faoliyat ko’rsatgan tajribali kishilar murojaat qiladilar. Gohida esa dirijorlikka bastakorlar qo’l uradilar. Buning uchun dirijorga tabiatdan berilgan musiqani tinglash qobiliyati va musiqa xotirasi nihoyatda zarur bo’ladi. Zero, pultda turar ekan, u musiqiy asarning har bir notasini eshitishi kerak bo’ladi. Agar orkestr a'zolaridan qaysi biridir noto’g’ri chalsa, yuz kishidan aynan qay biri noto’g’ri chalayotganini aytib berish - dirijorning burchidir.

«Ohang mazmunini oldindan ilg’ab, mag’zini chaqib, har bir musiqiy cholg’uning tovushini yaxshi tushunishga, qulog’ingni ularga xos pardalarni ajrata bilishga o’rgat», - Robert Shumanning bu o’qishini har bir dirijor doimo esda tutishi kerak. Nozik, yaxshi «sozlangan» tembral eshitish qobiliyati (tembralniy slux) dirijor kasbida juda katta ahamiyat kasb etadi. U dirijorni har bir ijrochining ijodiy sa'yi harakatini nafaqat ulardagi mahorat va iqtidordan, balki sozning muayyan imkoniyatlaridan kelib chiqib aniq va to’g’ri yo’naltira bilishga qodirlik darajasini ko’rsatadi. Shuni bilish qobiliyati o’ta muhim jihatlardan biridir.

Orkestr cholg’ularining tabiatini puxta o’zlashtirish orqali yaxshi dirijor eshitish qobiliyatini va ar qanday cholg’ularga xos jilvalarni chuqur his etish hususiyatini o’zida shakllantirish mumkin. Inson ovozlari kabi, har bir musiqiy o’ziga xos intonatsion - koloristik ifoda kuchiga ega, uning texnik hususiyatlari qamrovi bor, o’ziga xos ovoz ko’lami va tezlik chegarasi mavjud. Shu bois dirijor bularning hammasini yaxshi bilishi darkor. Aks xolda u repetitsiyalarda bajarishi mumkin bo’lmaydigan yoki texnik noqulayliklar tug’diruvchi narsalarni talab etayotgan nohaq o’qituvchi xolatiga tushib qolishi mumkin.

Ijrochi uchun noqulay va o’zini oqlamagan har bir narsa ijroning badiiyligining pasayishiga olib keladi. Ba'zan ijrochilar, ayrim yosh dirijor bilan uning talabchangligiga qaramay, ishlash qulayligini, boshqa dirijor bilan esa, garchi u talabchan bo’lmasada, ishlash noqulayligini aytadilar. Buning sababi nafaqat musiqa talqinlarini turlicha ekanida, balki bir dirijor ijrochilik san'atining har bir turiga xos ifodali va texnik imkoniyatlarini yaxshi tushunishi, ijodiy mahorat cho’qqilariga erishish yo’llarini bilishi, boshqasi esa, bularni tushunmasligi va bilmasligiga borib taqaladi. Ana shu «boshqasi» o’zining «betakror ijodiy maqsadlari» haqida jimjimador tarzda fikr yuritishi mumkin-u, ammo bu maqsadiga qanday ijrochilik vositalari yordamida erishish mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi. U badiiylikni ijro texnikasidan ayri oladi, bu esa san'atda hunarbozlikka olib keladi.

Yaxshi dirijor bo’lib yetishish uchun ko’p narsani bilish kerak, avvalo, haqiqiy musiqachi bo’lishi kerak. Taniqli dirijor Oskar Frid aytganidek, «eng nozik musiqiy tasavvurlarni ilg’ashga qodir yurak bilan tug’ilish kerak, ana shu tasavvurlarni g’oyalarga aylantirishga qodir aqlni tarbiyalash zarur, bu g’oyalarni orkestrga yetkazish uchun esa kuchli qo’lga ega bo’lish lozim». Mohir dirijorning san'atini orkestrdan ajratib bo’lmaydi deganimizda, biz avvalo uning ijrochilar jamoasini ko’p tovushli va rang-barang yagona musiqa cholg’usi sifatida qabul qila olish qobiliyatini nazarda tutamiz. Ana shu yagona musiqiy cholg’u - tirik, o’ziga xos tarzda fikr yurituvchi, his qiluvchi va yaratuvchi ijodkor - musiqachilar

guruhidan iborat ekanligini doimo esda tutish kerak. Orkestr jamoasiga uyg'unlashib ketish, butun vujudi ila u bilan nafas olish, kuylash, ijro etishga qodir bo'lmagan musiqachi mohir dirijor bo'la olmaydi.

«Yaxshi xotira - dirijorning asosiy va eng yaxshi fazilatlaridan biridir», - degan edi Sharl Myunsh. Bu borada Nikolay Anosov Balakirev bilan sodir bo'lgan voqeani misol qilib keltiradi: «O'z navbatida ajoyib pianinochi ham bo'lgan Balakirevning dirijorlik fazilatlari uning zamondoshlari bo'lgan bastakorlarning rus musiqa shinavandalari orasida ommaviylashuviga ko'p jixatdan ko'maklashdi. Balakirev tomonidan M. I. Glinkaning «Ruslan va Lyudmila» operasini Pragada saxnalashtirilganligi ham bu borada katta ahamiyat kasb etdi. Bu postanovka bilan bog'liq qiziqarli voqeani eslab o'tmasdan iloj yo'q.

Premera arafasida «Ruslan va Lyudmila» partiturasi qo'yib bo'ldi va umuman topilmadi. Biroq bu spektakl muvaffaqiyatiga zarracha putur yetkazmadi - Balakirev butun operani yoddan bilgani uchun bemalol o'tkaza oldi.»

## 2.1. Xalq qo'shiqlarini o'rgatish orqali o`quvchilarda milliy istiqlol g`oyalarini shakllantirish.

Yosh avlodni xayotga va san'at go`zalliklarini teran idrok etishlari ularning estetik tuygu va badiiy didlarini uzgartirishda adabiyot, madaniyat kasb yetadi. Shuning uchun xam pedagogika ta'lim amaliyotida uziga xos maktab yaratgan mashxur olimlar va tarbiyachilar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida estetik mazmunni va moxiyatni kasb yetuvchi bilimlarga aloxida ahamiyat berganlar. Xalqning tarixiy HHtarakkiyoti jarayonida yaratilib kelayotgan san'at va uni zarchashmalaridan olgan xalq ogzaki ijodi namunalari, qo'shiqlar va musiqani yoshlarning didi va tuygusini, dunyokarashini ustirishdagi ahamiyati bekiyosdir. Xayotning bekaror kirralarini ustirishdagi ijod axillikni lirik kechinmalar uzida aks yetishdan xalq qo'shiqlari o`quvchilarni guzallik olamiga olib kirish guzallikka mexr-muxabbat uygotib, ukish va mexnatga ruxlantirishi shubxasizdir. Xar bir inson bolalagidan boshlab san'at ukishida yashaydi. Uning qo`logiga kiradigan birinchi san'at namunasi ona allasidir. Ona allasi esa dunyodagi barcha xalqlarning

yeng ajoyib va mumtoz asari xisoblanib xar bir davrda xam aziz bulib koladigan bebaxo qo'shiqdirki, uning sexrini bildaman odamning uzi yuk. Insonni gudakligidayok san'atning sexri olamiga ilk mexrini uygotadigan va umrbod unga oshno kilib kuyadigan xam anna shu onasidir. Shunday yekan bolada gudakligidayok nish ura boshlaydigan bu yezgulikni ulgayadigan sari kuchaytirib borish kerak bo'ladi. Qo`shiq san'ati xakida fikr yuritiladigan uning tarkibiy tuzilishini yaxshi o'rhanish juda muxim. Oxangda qo'shiqning goyaviy, badiiy mazmuni uziga xos usulda, musiqiy tavushlar shaklida ifodalanadi. Oxang qo'shiq mazmuniga oxos, betakror, unda rang-barang nozik tovushlar, xissiy joziba usullar ifodalash vositalari uluglangan. Demak, ohang xayotning shodligiyu, gam-alami, xijron ayriligini ifodalovchi qo'shiq mazmuniga boglik bo'ladi. Shundan kelib chikib qo'shiq matni bilan uning ohangi munosib, muvaffakligini bosh mezon sifatida ye'tirof yetish mumkin. Qo`shiqni ijro yetishda birinchi galda ohang jozibadorligiga, tovush shiradorligi va ovozning musiqiyligiga yerishish kerak. Xonandaning dildan jushib kuylashi estetik tarbiyada qo'shiq san'atiga yoshlarni oshufta qilish zarur sharoitlaridan biridir. Demak qo'shiqchilikda bu sanatning barcha tarkibiy jixatlari uluglashgandagina u yoshlarning estetik va axlokiy tarbiyalanishining muxim ustasiga aylanadi. O`zbek xalq qo'shiqlarining salmokli turlaridan birini termalar tashkil qiadi. Sharkning yaratuvchilari xalqning uzidir. Shuning uchun xam xalq qo'shiqlari deganda avval kuz oldimizga kadmgi zamonlardan beri aytilib kelayotgan qo'shiqlar, laparlar, yor-yorlar keladi. Xalq qo'shiqlarining tarmoklari, shakllari va janrlari ko`p bo`lib, ulardan quidagi turlarini biz musiqa darslarida tajriba sinov ishlarini olib borishda qo`lladik.

Orkestr oldiga chiqishdan avval, dirijor partiturani birinchi notadan so'nggi notasigacha, sinchiklab o'rganib, uni yodlab oladi. Shunga qaramay, pultda juda ko'p buyuk dirijorlar partituradan foydalanadilar. Ba'zilar esa, yoddan dirijorlik qilib, muxlislarning alohida e'tiborini tortib, olishiga sazovor bo'ladi. Shu munosabat bilan X1X asarning taniqli dirijori Gans Fon Byulov, «dirijorlarni - kallasi partiturada va partitura kallasida bo'lganlarga» ajratar edi. Bu - eng asosiy va to'g'ri aytilgan gap.

Dirijor navo, xirgoyi va ritm hissiga ega bo'lishi lozim. qachonlardir Vagner musiqiy jumlani mantiqan xirgoyi qilib berishni bilmagan dirijor, to'g'ri temp-ritmni ham topa olmasligini, musiqaning o'zi esa uning uchun qandaydir mavhum, grammatika, arifmetika va gimnastika o'rtasidagi qandaydir mujmal narsa ekanligini qayd etgandi. Bu juda to'g'ri. Musiqiy asarning navosini his qilish-musiqaning go'zalligini anglash va uning barcha nozik harakatlari plastikasini ilg'ash, asarning obrazlilik ruhiyati va uslubiga singib ketishning eng qisqa yo'lidir. Aynan navoni his qilish orqali dirijor yengil va tabiiy tarzda jamoaviy ijod jarayoniga singib ketadi. Dirijorning obrazli tasavvuri kuchli bo'lishi ham juda muhim, negaki bitta musiqa turli insonlarda har xil tasavvurlarni vujudga keltiradi. Kompozitor yaratgan musiqa o'zida mujassam etgan barcha narsalarni qanday qilib anglash va tasavvurda tiklash mumkin Mana shunda dirijorning ijodiy fantaziyasi va uning obrazli-shoirona fikrlash qobiliyati qo'l keladi. Muallifga ishongan xolda uning ketidan borar ekan, ijro etilayotgan asar g'oyasiga tayanib, dirijor o'z tasavvurida uning mohiyatini tiklaydi, uni aniq obrazlar orqali ko'ra oladi. Albatta, turli ijrochilar asar mohiyatini boshqa-boshqa obrazlarda tasavvur etishlari mumkin. Kompozitor uslubini yaxshi bilish, muallif g'oyasini anglab etish, nihoyat yaxshi va nozik did, musiqachini asarga xos bo'lmagan mohiyatini tushintirishdan saqlaydi, musiqiy asar talqini tabiiy va haqqoniy bo'lishini ta'minlaydi.

Iroda kuchi va ijodiy intilish -ana shu ikki fazilat shunchalik muhimki, ularsiz musiqachi qanchalik buyuk bo'lmasin dirijor bo'la olmaydi. Yaxshi deganda orkestrni birlashtirish va unga xalal bermaslik uchun did bilan takt belgilab berishi mumkin, bu ham bo'lmasa musiqaning ifoda kuchiga batamom putur yetkazib, faqat uning kuchli qismlariga urg'u bera oladi xolos. Har ikkala xolda ham dirijorlik «ko'rsatib turish» san'atiga aylanib qoladi, bu esa xali orkestrni boshqarish degani emas.

«Ajoyib, yuksak darajada iqtidorli, xatto buyuk musiqachi - kompozitor, pianinochi, skripkachi yoki boshqa ijrochi bo'lish mumkin-u, iste'dodning ilg'ash qiyin bo'lgan va faqat ayrim musiqachilarning dirijor bo'la olishiga sabab

bo'luvchi alohida fazilatlarga ega bo'lmaslik mumkin. Bunga misollar talaygina: xususan, Chaykovskiy, Taneev, Debyussi, Rimskiy-Korsakov kabi bastakorlar, Izai, Venyavskiy, Kazane kabi ijrochilar va boshqalarni sanab o'tish mumkinki, ularning kompozitorlik yoki ijrochilik mahoratini dirijorlik san'ati bilan taqqoslab bo'lmasligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga Vagner, Berlioz, Raxmaninov, Maler kabi ajoyib kompozitorlar, Byulov, Karlo Sekki kabi pianinochilar o'zlarida alohida dirijorlik qobiliyati bo'lgani uchun mohir dirijor bo'la oldilar», - deb yozgan edi Nikolay Anosov.

Dirijor, boshqa xar qanday ijrochi-musiqachi kabi artist, ijodkordir. Biroq dirijor xolati birmuncha murakkab. Yakkaxon-musiqachining cholg'usi royal, skripka, violonchel yoki truba bo'lishi mumkin. Dirijorning cholg'usi esa yuzlab sozandalar va cholg'ulardan iborat butun boshli orkestrdir. Bir emas bir qancha cholg'ularni dirijorning o'zi chalmaydi, balki boshqalar qo'li bilan chalinadi. Ularning xar biri o'z xarakteri, tabiati, fe'liga ega, ular musiqani turlicha tarzda tushunishlari, idrok qilishlari mumkin.

Dirijorning vazifasi - orkestrni o'z irodasiga bo'ysundirgan xolda barcha musiqachilarning musiqani yakdil his qilishini ta'minlash, ularni birlashtirib, yuzta turli shaxsdan o'zining xar bir harakatiga qarab ish tutuvchi yagona jamoa, organizm yaratishdan iborat. Bunda quvonchli ijod hayajoni, ijodkorga xos va uni san'atga ruhlantiruvchi ko'tarinkilikni asabiylikdan farqlash joiz. Zero ijodiy hayajonda doimo o'zini tuta bilish, yaxshi kayfiyat, ijodga berilib, sho'ng'ib ketish hamrox bo'lsa, asabiylik o'ziga ishonmaslik, quyushqondan chiqib ketish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

O'zini qo'lga ola bilish qobiliyati, bor mahoratni ishga solish, mavjud bilimlardan to'g'ri foydalanishning birinchi shartidir. Shu bois ijrochining ijodiy xarorati, ya'ni uning artistik temperamenti xususiyatlari va undan foydalana olish qobiliyati musiqa ijrochisiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ijro jarayonida ana shu «ijodiy harorat chegaralari» juda aniq belgilanishi lozim. Haddan ziyod yuqori harorat asabiylashuvga, badiiy pulsning noaniq bo'lishiga, juda past harorat esa

ijodiy jarayonning jonsizlanib, samarasiz bo’lishiga olib keladi. Bulardan birinchisi ijrochini ijodiy jihatdan o’zini qo’lga ola bilishdan maxrum qiladi, ikkinchisi esa hissiyotlarni yo’qqa chiqaradi.

O’z vaqtida Sharl Myunsh: «Agar dirijor ichki hissiyot kuchiga, orkestr a'zolari va tinglovchilarni sexrlab qo’yishga qodir ohanraboga ega bo’lmasa, unda xatto 15 yillik mehnat va o’qish jarayoni ham insonning dirijor bo’lishiga yordam bera olmaydi», - deya e'tirof etganda mutlaqo haq edi. Dirijor ijro etilayotgan asarni juda yaxshi bilishi, nota materialini yaxshi yodlab va o’rganib olishi kerak. Biroq, kompozitorning badiiy maslagi va maqsadlarini tushunib, ochib berish uchun uning nota yozuvi zamirida yotgan tub ma'noni chuqur anglashi lozim.

Asarni ko’z bilan o’rganish maqsadga muvofiq emas, uni ichki eshitish qobiliyati bilan idrok qilish, his etish va urg’u bera bilish kerak. «Partiturani ijro etishdan oldin uni ichki hissiyot bilan o’rganuvchi va orkestr repetitsiyasi boshlanguncha tinglanadigan narsani aniq biluvchi dirijor - juda chuqur ijodiy hodisadir. Zero, bunday dirijor musiqani ijodiy tafakkur yoki fikr sifatida namoyon etadi, u dirijorlik texnikasini puxta o’zlashtirgan bo’ladi.

Dirijorlik texnikasi esa, mohiyati, ijrochilar jamoasiga ma'lum tashqi belgilar orqali o’zining niyatlari va maqsadlarini yetkazish va ularda o’zinikidek hissiyotlar uyg’otishdan iborat», - deya ta'kidlaganda yanglishmagan edi B. V. Asafev. Pultda turgan dirijorning o’zini tutishi, qo’l harakati, yuz ifodasi, ko’z nigohning ma'nodorligi, tabiiyligi yoki aksinchalik - bularning barchasi ijrochilar jamoasi tomonidan ajoyib sezgirlik va aniqlik bilan qabul qilinadi. Bularning barisi dirijorning ijrochilarga tashqi ta'sir vositalari - uning texnikasi va tom ma'noda chegarasiz bo’lgan ifoda imkoniyatlarini tashkil qiladi.

Musiqa sohasidan yiroq bo’lgan tinglovchiga dirijor mehnati ba'zida oson, texnikasi esa jo’n va oddiydek tuyuladi. U «dirijor bo’lish uchun musiqa jo’rligida tayoqchani pastga - tepaga ko’tarsa, bas», deb o’ylashi mumkin. Vaholanki, dirijor tayoqchasining harakati, uning o’z maqsadlarini ijrochilarga yetkazishning asosiy

vositasidir. Bu - butun dunyo dirijorlari o’z mamlakatlari va xorij orkestrlarining ijrochilari bilan muloqot qiluvchi o’ziga xos tildir.

Uni barcha orkestr, xorning birdek tushunishlari uchun esa dirijor bu tilni mukammal bilishi lozim. Dirijor qo’l harakati mukammal darajada ma'nodor bo’lishi uchun o’ng qo’l va uning «davomi» bo’lgan tayoqchaning barcha harakatlari o’zaro mutanosib bo’lishi kerak. Chap qo’lga kelsak, u asosan o’ng qo’l harakatini ma'no jihatdan to’ldirib turishi lozim. Tayoqcha esa dirijorning bilagi, kafti va barmoqlarining tabiiy davomi bo’lishi darkor. Ularga bo’ysunar ekan, tayoqcha dirijorning nozik ichki kechinmalari, uning aql idroki, irodasi va hissiyotlarini aks ettiruvchi o’ziga xos oyna sifatida namoyon bo’ladi. Erkin va qulay qo’l harakati shubxasiz dirijor mahoratining belgisidir. Uni turli mamlakat dirijorlari ko’p yillar davomida ishlab chiqqanlar. Uning samarasida ayni paytga kelib dirijor qo’l harakatlarining rivojlangan tizimi shakllanib ulgurdi. «Dirijorning qo’l harakati» - deb yozgandi Nikolay Malko, - hamma narsani bildirishi, birinchi navbatda taktlash, ya'ni takt hissalarini qo’l harakati yordamida ifodalash kerak. Shuningdek, dirijorning qo’l harakati musiqiy cholg’ularning chala boshlashini va ijroning to’xtalishini ham ko’rsatib beradi. U shuningdek turli cholg’ularning yoki orkestr guruhlarining tovush kuchi qanday bo’lishi va qachon sur'at o’zgarishi, harakat to’xtatish - ya'ni fermata bo’lishi va hokazolarni ko’rsatadi.

Tomoshabinlar dirijor o’ng qo’lida tayoqcha ushlashini, chap qo’li esa erkinroq harakat qilishiga e'tibor bergan bo’lishsa kerak. Dirijorning har bir qo’li go’yoki o’z hayoti bilan yashaydi. Darhaqiqat, dirijorning o’ng va chap qo’li alohida-alohida ahamiyatga ega.

«O’ng qo’l takt belgilaydi, - deb yozgan edi Sharl Myunsh, chap qo’l esa o’ziga xos xususiyatlar va o’zgarishlarga ishora qiladi. O’ng qo’l - aqlniki, chap qo’l yurakniki va o’ng qo’l doimo chap qo’l nima qilayotganini bilishi kerak».

Artur Nikish esa: «O’ng qo’l kesadi, chap qo’l esa - chizadi», der edi.

«O’ng qo’l metrni ko’rsatadi... Chap qo’l esa orkestr hissiyotlariga murojaat qiladi. Qaysi qismni sho’xroq, qay birini esa xotirjamroq, kengroq, yumshoqroq yoki moyilroq ijro etish kerakligini ko’rsatadi», - deb yozgan edi Sharl Myunsh.

Qo’llaridan tashqari dirijorning ko’zlari, yuz ifodasi, uning tana xolati ham alohida ma'no bildirishda yordam beradi. Ba'zan musiqada mavjud bo’lgan quvonch yoki qayg’u, g’azab yoki xotirjamlik kabi tuyg’ularni bildirish uchun dirijorning birgina nigohi kifoya bo’ladi.

Demak, dirijorlik kasbi – og’ir jismoniy mehnat hamdir. Har bir repetitsiya, ayniqsa kontsert dirijyordan ulkan jismoniy va ruhiy kuch hamda matonat talab etadi. Shu bois dirijor, sportchi yoki balet artisti kabi mustahkam salomatlik, jismoniy quvvat, iroda kuchi, o’zini tuta bilish qobiliyati va o’z tanasini mukammal boshqara olish xususiyatiga ega bo’lishi lozim. Haqiqiy san'atkor, avval o’zi ijro etgan asarlarni boshqatdan ijro etganida undagi badiiy obrazga yangi bo’yoqlar baxsh etuvchi qirralar olib kiradi. Shu o’rinda buyuk Artur Nikishning quyidagi so’zlarini keltirish joiz: «Agar siz bitta asarni bir yil davomida har kuni repetitsiya qilsangiz ham, uning har bir ijrosi katta improvizatsiya bo’lishi kerakligini unutmang». Shu bois har bir dirijor o’z musiqiy faoliyati davomida musiqiy adabiyotlarni chuqur o’rganib borishi kerak. Shaxsan o’ziga nima yoqishidan qat'iy nazar, dirijor ar qanday millatga, uslubga, davrga mos musiqiy adabiyotni, ayniqsa zamonaviy musiqiy adabiyotni yaxshi bilishi lozim. Kontsertlar, opera teatrlariga borib turish va tanishish, dirijorlarning ijro mahoratini taxlil qilish - musiqiy dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi. Musiqadan ilhomlanuvchi haqiqiy usta san'atkor shaxsiy narsalardan mutlaqo yiroqdir: u o’zining muvaffaqiyati - musiqa muvaffaqiyatida ekanligini tushunishi keark.

Musiqaga singib ketib, uning obrazlari bilan yashar ekan, dirijor barcha ichki kuchlari - fikrlari, hissiyotlari, tasavvuri, temperamenti bilan orkestrga ta'sir ko’rsatadi va u bilan birgalikda umumiy intilish samarasida musiqiy asarni haqqoniy talqin etadi. U tinglovchilarga musiqadan boshqa narsa bilan ta'sir

ko'rsatish fikridan nihoyatda uzoq bo'lishi kerak. Dirijordan tarqalib turadigan ichki quvvat tinglovchiga ortiqcha harakatchanlikdan va behuda sarflangan kuchdan ko'ra ko'proq ta'sir etadi. Tashqi xotirjamlik, lo'ndalik va shu bilan birga tuyg'ular samimiyligi ham orkestr, ham tinglovchilarni o'ziga rom etadi. Musiqa og'ushiga, asarning dramaturgik mantiqi ta'siriga tushib qolgan tinglovchilar dirijorga e'tibor bermay qo'yadilar, zero ular uchun musiqa - dirijor orkestrdan iborat yagona uyg'unlik, yaxlitlik bor. P. I. Chaykovskiyning buyuk Artur Nikish haqidagi iborasini esga oling. Musiqa haqida emas, o'zi haqida, o'zining muvaffaqiyati to'g'risida o'ylovchi, tinglovchiga ta'sir qilish uchun tashqi effekt qidiruvchi dirijor musiqaning va qolaversa o'zining vazifalarini tushunishdan naqadar yiroqdir! hissiyotga qaddan ziyod, «xo'jako'rsinga» berilib ketish, «Frakga siqmay ketayotgan» dirijorning ortiqcha «temperamenti» uning o'z vazifalarini chuqur anglamasligini ko'rsatadi. Qolaversa, musiqani ulkan san'atga xizmat qilishdan iborat bo'lgan burchini his etmasligini anglatadi. Ziyraklik, soddalik, aniqlik va maqsad sari intilish, qo'l xarakatining o'ta ma'nodorligi - bularning barchasi orkestr kontsert vaqtida bajarishi uchun undan repetitsiyalarda talab qilingan narsalarni yuzaga keltiradigan muhim omildir.

«Dirijor, orkestrni g'aflat changalidan yulib olib, badiiy ijro cho'qqilariga olib chiqish uchun iroda kuchi va alohida qobiliyatga ega bo'lmog'i lozim», - degan edi Bruno Valter. Demak, dirijor qar bir musiqachida yuksak ma'suliyat xissini uyg'otib, ana shu tuyg'u tufayli ular o'zlarini ma'lum ma'noda yakkaxon ijrochi sifatida his qilishlarini ta'minlashi lozim. Undan tashqari, dirijor orkestrga o'ziga xoslikdan yiroq bo'lgan ovoz va tembrlarning yig'indisiga qaragandek munosabatda bo'lmasligi, balki qator betakror shaxslarni birlashtiruvchi murakkab tizimga yondoshgan kabi e'tiborli bo'lishi lozim.

Jamoadagi har bir ijrochining qobiliyatini bilish nihoyatda muhim. Agar dirijor o'zini xayolan har bir musiqachining o'rniga qo'yib ko'rib, uning ruhiy holatini tushuna bilsa, unda orkestr bilan til topishish ancha oson kechadi.

«Agar orkestrning har bir musiqachisiga, siz faqat uning o’zi uchun dirijorlik qilayotgandek ta'sir qila bilsangiz, demak siz yaxshi dirijorlik qilayapsiz», - deydi Sharl Myunsh. Dirijor va ijrochilar jamoasi o’rtasidagi munosabatda dirijor hamma tan olgan rahnamo, yo’lboshchi mavqeida bo’lishi kerak. Dirijor doim barchaning ko’z o’ngida bo’ladi. Uni doimo musiqachilarning o’tkir nigohi kuzatib turadi. Garchi ular dirijorga do’stona munosabatda bo’lsalarda, uning tayyorgarligi va mahorati qay darajada ekanligini darhol ilg’ab oladilar. Masalan, taniqli bastakor va dirijor Rixard Shtrausning otasi, o’z vaqtida mashhur bo’lgan valtornachi shunday degan edi: «Siz, dirijorlar, doimo esda tutingki, biz sizni hamisha kuzatib turamiz. Sizni pultga qanday ko’tarilib, partiturani qanday ochishingizni, bilishingizni ko’zdan qochirmaymiz, tayoqchangizni ko’tarmasingizdanoq, bu yerda kim hukmronlik qilishini - sizmi yoki bizni - darrov ajratib olamiz». Rahnamo bo’lmasidan, o’zini «yo’lboshchi va haqiqiy raqbardek his qilmasdan» turib dirijorlik qilish mumkin emas.

Biroq, yetakchilikni turlicha tushunish mumkin. U majburiylikda ham, ishonch qozona bilishda ham yuzaga keladi. Shunday dirijorlar ham bor-ki, ular ijrochilarga faqat buyruq beradilar. Bunday dirijor butun ijro davomida o’zining mutloq hukmini o’tkazadi. Taniqli dirijor Gennadiy Rojdestvenskiy qattiqqo’llikni mana bu tarzda izohlaydi, «bu narsa texnik jihatdan mukammallikka, dirijor talablarining aniq bajarilishiga olib kelishi mumkin-u, lekin bunda qech qachon alohida musiqachilar va yaxlit orkestr ilhomlanishi mumkin bo’lgan muhit, erkin ijod jarayoni vujudga kelmaydi. Albatta, agar bu - haqiqatan ham yuksak darajadagi orkestr bo’lsa».

Shu bois ijrochilarga o’z istaklarini haddan ziyoda qattiqbqo’llik tarzida emas, balki ishontirish yo’li bilan muloyim, biroq ayni paytda yetarli darajada jiddiy holatda yetkazish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu usul san'atkorlarni ijro etayotgan musiqani yakdil tushunishlariga xizmat qiladi va hamnafaslikka asos soladi. Ana shunda dirijor va orkestr o’rtasida chinakam muloqot boshlanib, ular birgalikda ijod qila boshlaydilar. G. Rojdestvenskiy aytganidek «dirijor musiqaga

o’z yondoshuv tarzini orkestrga taklif etgan holda buning evaziga orkestrdan o’ziga xos javob, yoki to’ldiruvchi ayrim qo’shimchalar olsa ana shunda mukammal ijroga erishiladi». Dirijor ijrochilarga musiqa haqidagi o’z tasavvurlarini qanchalik aniq yetkaza olsa, ularning amalga oshirilishi uchun imkoniyatlar shunchalik ko’p bo’ladi.

Endi, dirijorlik san'ati tarixi bilan tanishganimizdan so’ng, biz bir qarashda jo’n tuyulgan tayoqcha harakatlari aslida musiqiy ijroning eng murakkab va qiyin turi ekanligini tushundik. 1.Mavsum va marosim qo`shiqlarini ikki katta guruxga bo’lish mumkun bu qo’shiqlar yilning turli fasillarida bayramlarida turli shodyonalarida to`ylarida va boshqa tadbirlarda ijro etiladi. Xalq orasida bunday qo’shiqlarning uz ijrochilari bo’lgan.bunday qo’shiqlar jumlasida yor-yorlar, allalar tegishli biror sana munosabati bilan aytiladigan qo’shiqlar va mexnat qo’shiqlari kiradi.

2.Turli mavzularda xar doim ijro yetish mumkin bo’lgan qo’shiqlar, bunday termalar, lapar, yalla kata ashula va boshqalar kiradi. Makomlar musiqa soxasiga mansub bo’lgan uchun ular to’g’risida tuxtalmaymiz. Birok mumtoz shoirlarning gazallari bilan aytiladigan ba’zi bir makom tarkibidagi qo’shiqlar dan estetik tarbiyadan foydalanish mumkin. Bu o’rin da yuqorida zikr etilgan xalq qo’shiqlari turlaridan ayrim misollar keltirib o`tish o’rinlidir.

**Yor-yor**

Xusn elining podshosi
Sen emishsan yor-yor,
Sabo bilan subxidam
Gul ochilur yor-yor
So`ylaganda o`zingdan
Dur sochilar yor-yor

**Terma**

Xavoni bulut bosdi
Oyni kurmasam bo`lmas.

Yuragimni g`am bosdi,

Yorni ko`rmasam bo`lmas.

**Alla**

Alla aytsam ovungin,

Oppoq ko`zim alla.

Beshigingda quvongin

Jonim bolam alla.

Alla-yo alla

Duolar qilsin joningni

Alla-yo alla.

**Lapar**

Daryoning u yuzida minoraman

Minoraga suyanib gul olaman

Yarmi oq yarmi qizil piyolaman

Bir salom ikki kalom qarindoshdir

Tokay salom beraman bag`ri toshga.

Demak musiqa odamda insoniylik, samimylik, birodarlik tuygusini kuchaytira oladigan mujizakor kuch. Musiqaning yaratilishi va tarakkiyot xalqning ijtimoiy-iktisodiy turmush tarzi falsafiy estetik karashlari bilan boglikdir. Xalqning yaxshi kunlari xam yomon kunlari xam kuy-qo’shiq bilan birga utadi. Xalqning donishmandchiligining go`zal ko’rinishi bo’lgan o’zbek xalq musiqa merosi yoshlar dunyokarashiga tez ta’sir yetuvchi muxim tarbiya vositasi sifatida keng urganilmogi davr talabidir. Xususan o’zbek xalq musiqa merosida qo’shiq eng ommaviy va ta’sirchan janr bulib o`ziga xalq psixologiyasi ruxiyatini pedagogikasining eng ilg`or g`oyalarini mujassamlashtiradi xalq qo’shiqlarida xalq xayoti va dunyoqarashi xaqida mukammal ma’lumot mavjudki, bu ohanglarni idrok etish uchun shu xalq ruxiyatini tushunish kerak.

## 2.2. Umumta'lim maktablari badiiy xavaskorlik to`garaklarida xalq qo'shiqlarini o'rgatishning usublari.

Davlatimiz yoshlarini sog`lom, yetuk kishilar bo`lib yetishishda barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Jumladan umum ta'lim maktablarida o`quvchilarning yoshligidayok uziga talabchanligi, xalollikka va xakguylikka, saxiylik va prinsipiallikka, birdamlik va vatanga muxabbat, millik kadriyatlarimizga sodiklik ruxida tarbiyalash juda muximdir.

Maktab insonni axlok prinsiplari asosida yashash, ish tutish davlatimiz konunlariga ogishmay roya yetishdan iborat ichki yextiyojni vujudga keltirish kerak. Ayniksa, bu borada adabiyot, musiqa, tasviriy san'atning imkoniyatlaridan keng foydalanish kerakdir. Bu fanlar o`quvchilarning bilim darajalarini kengaytirish bilan birga kata tarbiyaviy kuchga yegadir. Xalq qo'shiqlari uzining musiqiy ravonligi va ritm ko'rinishi bilan xalq ogzaki ijodining professional ko'rinishi bo'lgan kup kismli vokal cholg'u asari bulmish makomlar bilan xam uzviy boglikdir.

Xalq qo`shig`i ijodi xam fal'klorning boshqa turlari singari badiiy va goyaviy mazmunga yega bulib, soda va nixoyatda ixcham va mukammal farmonlarga yega juda ko`p faktlarga asoslangan qadimiy san'atdir. Xalq musiga merosi o`zining soddaligi, milliyligi, xushxonandaligi bilan o`quvchilarni o`ziga jalb qiladi.

Biz tarbiyalanishni maqsad kilib olar yekanmiz, avvalo o`quvchilarni xalq merosiga qiziqtirishni asosiy maqsad qilib oldik. Dars jarayonida bajarib beradigan xar bir ijodiy mexnatga nisbatan qiziqtirish, kuzlangan maqsadga yetishning zaruriy sharoitlardan biri deb belgiladik. Shuning uchun biz maktabda musiqa darelari orkali yeng avvalo boshlangich sinflarda o'zbek xalq musiqa merosini o'rhanishda jiddiy ye'tibor berdik va kuyidagi xulosalarga keldik.

Xalq musiqa merosini o'rhanishga bagishlangan dareliklarni doimo kizikarli va tushunarli, texnik vositalardan keng foydalangan xolda tashkil yetish kerak. Dare jarayonida esa foydalanilgan metodiklarni ta'siri, o`quvchilarni u yoki

bu bu dare mavzulari aytish istak va kizikishlari, uzlarining munosabatlari olib borilgan suxbat, savol javoblardan aniklab bildik.

O`quvchilarni xalq musiqasi namunalari, xususan xalq qo'shiqlari bilan tanishtirib borish, ularning xalq musiqasini uziga xos ohanglarini idrok yetishi, uni uziga xos rangi buyoklari, nola va kochirmalari, tuzilish, kaytariklar, rang-barang usullari, shakli va mazmuni, turli xududlarga xos bo'lgan farqi va mushtarak so`z xususiyatlari xaqida ong, tushuncha va tasavvurlarga yega bo'lishlariga olib keladi.

Musiqa darslarining 5 ta faoliyat turi bo'yicha tashkil etilishini nazarda tutadigan bo'lsak qo'shiq o'rganishga va bogliqligi va tashkil yetish darajasini samarali kechishini belgilaydi. O`quvchilar ma'lum bir xalq ko`shiini o`qituvchi ijrosida yoki magnitafon yozuvida tinglaydiganlar bu o`quvchilarda qo'shiqning o`ziga xos badiiy ijodi xaqida emosional tasavvurlarni xosil qiadi. Shundan sung ukuvchi kerakli manbalarga tayangan xolda qo'shiqni mazmunini, unda ijodlangan mazmun moxiyati mavzusi, qanday xollarda yetilishi, xarakter, kaysi xududiy ijrochilik uslubidaga tegishligi xakida muxtasar ta'limotlarni ishchan, lunda va tushunchalarni bayon yetadi.

O`quvchilarga qo'shiqni bevosita o'rgatish jarayonida o`qituvchilarni sozandalik va qo'shiq o'rgatish metodiklardan yaxshi xabardorligi va ularni uz o`rnida qo`llay olish mumkin. Bu eng muxim o'rinlardan bo`lib, o`quvchilar diqqatini o`rganiladigan qo'shiqka karatish dikkat xotira yemosional kutarinkilik bu o'rinda yaxshi samara beradi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ma'naviyat esa uzluksiz, harakatdagi jarayon. San'atga aloqador boyliklar ma'naviy boylikni tashkil etadi. San'atsiz hayot nursiz, jilosiz, mantiqsiz va zerikarli bo'lib qolardi.

San'at nima san'at deganda badiiy ijodni tushunamiz, har bir san'at asari o'z janr xususiyatlariga ko'ra hayot manzarasini ifodalaydi. Olam hodisalarini yorqin obrazi orqali yoki tasvirini musiqa orqali ifodalashga erishadi. U (musiqa) insonning ma'naviy kamolotida faol ishtirok etadi, go'zallik, did haqidagi

tasavvurlarining shakllanishiga samarali ta'sir kўrsatadi. Necha ming yillardan beri insoniyat musiqaga, uning go'zal ohanglariga maftun bo'lib keladi, ustoz-shogird an'analari orqali ijrochilik mahoratlarini egallash borasida izlanishlar olib boradi. Bunda musiqaviy meros asarlarining ma'naviy tarbiya vositasi sifatida o'rgatish uslublari katta ahamiyat kasb etadi.

San'atlar ichida eng yoshi va kam o'rganilgani dirijorlik san'ati hisoblanadi. Dirijorlik amaliyoti uning nazariyasini ancha ortda qoldirdi. Biroq aynan nazariyaga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa dirijorlikka o'rgatish ishida unga ehtiyoj katta. Dirijorlik sohasida ta'lim berish uchun nazariy negiz yaratishga doir izlanishlar tinimsiz davom etayapti, biroq shu paytgacha xatto eng fundamental tushunchalarning umum qabul qilingan va barcha uchun tushunarli bo'lgan ta'riflari yo'q. Terminologiyani ta'riflashda ham turli, ba'zan bir-biriga zid fikrlar mavjud. Ba'zilar dirijorlik - bu san'at emas, unga o'qitishning hojati yo'q, shunchaki orkestr yoki xor oldida turib, taktga solish yoki metronomlashi kifoya, ya'ni ijro etilayotgan asar taktining alohida qismlarini qo'l bilan ko'rsatsa bas va dirijorning vazifasi shu bilan tugaydi, deb hisoblaydilar. Boshqalar esa, dirijorlik - faqat ichki his tuyg'ularga asoslanadi, bu qandaydir sexrgarlik va shunga alohida qobiliyatli insonlar qodir, shu sababli dirijorlikka o'rganib bo'lmaydi, deb hisoblaydilar. Xar ikkala fikr va unga o'xshash mulohazalarning xato ekanligini isbotlab o'tirish shart emas. Dirijorlik san'atiga bu kabi qarashlarni rad qiluvchi misollar hayotimizda ko'plab uchraydi. Dirijorlik - bu qo'shiq aytish, royal, skripka yoki boshqa cholg'uni chalish kabi ijrochilik san'atidir. Shu bilan birga dirijorlik ijrochilik san'atining boshqa turlaridan jiddiy farq qiladi: agar musiqachilar jonsiz jismda musiqa ijro etsalar (fortepiano, skripka, truba, nay, rubob va x. z.). va ularning ijrolari cholg'uning sifati hamda o'zlarining mahoratlariga bog'liq bo'lsa, dirijor ko'plab bir-biridan farq qiluvchi insonlar bilan ishlaydi. U o'z oldida turgan xor yoki orkestr a'zolarini bir jamoada to'plab, ularni shunday birlashtirishi kerakki, bu jamoa uning boshqaruvida xuddi yaxshi sozlangan musiqa cholg'usidek yangrashi lozim. Aytish joizki, dirijorga o'z san'ati

haqida yozishdan ko’ra, dirijorlik qilish osonroq: dirijorlik faoliyatining ko’zga ko’rinuvchi qismini umuman ta'riflash qiyin. Zero, u yoki bu qo’l harakatini musiqasiz, so’zlar bilan tavsiflagandan ko’ra, uni musiqa fonida ko’rsatib bergan osonroq. Shu bois. diriyor ishining o’ziga xosligi, orkestr yoki xor rahbari sifatida uning zimmasiga yuklatilgan vazifaning naqadar murakkabligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, bo’lajak dirijor ushbu murakkab va mas'uliyatli ishda muvaffaqiyat qozonish imkonini beruvchi maxsus qobiliyatga, katta musiqiy-nazariy va amaliy tayyorgarlik bilimlariga ega bo’lishi shart. . O`zbek xalq qo’shiqlari asl moxiyatiga ko`ra xalq xayotining biron-bir kirrasini aks yettiradi. Qo`shiqlarni o’rgatishda bu jixatlar o`qituvchining e’tiboridan chetda kolmasligi kerak. Qo`shiqlar so`zlardagi «Sheva»ga xosliklar o`xshatishlar, ko`chirmalar, kinoyalar nimkosa tagidagi gaplar qo’shiqlarni badiiy mazmunini belgilovchi oaillardir. Bolalar uchun qo’shiq tanlashda va ularni o’rgatishda bir narsani unutmaslik kerakki, bu uning qaysi viloyat va xududlarda ijro etilishi va o`ziga xos elimentlari xaqida o`quvchilarga ilk ma’lumotlar berib borishi kerak bo’ladi.

Xulosa: keyingi paytlarda xalq musiqasini o’rhanishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. O`zbek xalq musiqa merosini o’rhanish jaxon mikyosida tarkalmokda. Xususan 1978 yil oktyabr oyida Samarkand shaxrida utkazilgan «Yakin va O`rta Sharq xalqlari professional musiqasining an’analari va zamonaviylik» mavzudagi xalqaro anjuman, yoki 1980 yil may oyida Xivada utkazilgan «Og`zaki an’anaviy musiqada professionallik» mavzudagi xalqaro simpoziumlarda avloddan-avlodga o’tib kelayotgan noyob xalq professional musiqa san’ati bulmish xalq qo’shiqlari va makomlarining amaliy, nazariy va tarbiyaviy imkoniyatlari izchil taxlil kilinib, o’zbek xalq qo’shiqchilik san’atini keng o’rhanish, tadkik kili shva xalq orasiщda targib va tashvik qilish masalasida amaliy tadbirlar kelishib olindi. Makomlar va xalq qo’shiqlarini moxiyatini to’g’ri tushinish uchun avvalo oddiy xalq qo’shiqlarini sevish, musiqa san’atini kadrlash, yeng muximi madaniy merosga e’tiqod qilish l ozim.

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, barcha ma’naviy qadriyatlarimiz kabi milliy merosimizni xam chuqur o’rganish uchun keng yo`l

ochildi. «Sharq taronalari» xalqaro musiqiy festivali eng avvalo, musiqiy- madaniy axloqlarini yo`lga qo`yish orqali turli mamlakatlar xalqlarini do`stlashtirishga xizmat qilishini ko`zda tutgan edi. Shu talablardan kelib chikkan xolda 1997 yildan boshlab Samarqand shaxrida xar ikki yilda bir marotaba utkazilayotgan xalqaro «Sharq taronalari» xalqaro musiqiy festivali yeng avvalo, musiqiy madaniy axloklarni yulga kuyish orkali turli mamlakatlar xalqlarini do`stlashtirishga xizmat qilishni ko`zda tutgan edi. Shu talablardan kelib chiqqan xolda 1997 yildan boshlab Samarqand shaxrida xar ikki yilda bir marotaba o`tkazilayotgan xalqaro «Sharq taronalari» musiqa festivali xalq musiqa an’analarini tiklashda milliy rux, milliy kiyofani shakllantirishda va mustaxkamlashda muxim ijtimoiy madaniy vazifani ado yetmokda. Xalq musiqasi xalqning manaviy boyligidir. Uni ko`z qorachig`idek asrash, rivojlantirish, kelgusi avlodlarga koldirish zarurdir.

2002 yil may oyida (24 may 2002 yil) bulib utgan YuNESKO tomonidan tashkil yetilgan «Boysun baxori» xalqaro festivali xam O`zbekiston xamda Urta Shark falklor musiqasi qo’shiqlarini, rakslarini namoyish yetuvchi ajoyib kurik buldi.

Maqom oddiylikdan murakkablikka o`tishni talab qiladi. Oddiy xalq qo’shiq va kuylarining kishi qalbiga olam-olam zavq bagishlovchi sexrini bilmagan odam makomdek murakkab musiqiy mujizaning estetik zavkini teran xis yetolmaydi. O`zbek musiqashunosi, xalq musiqasining bilimdoni Yunus Rajabiy uzining «Musiqa merosimizga bir nazar» nomli asarida makomning jilolchilik yullari xalq ohanglari bilan bog`likligi masalasiga to`xtalib : Maqom yo`llari bilan xalq musiqa asarlari orasida xech qanday fark yo`k. Xalq musiqasining kichik yoki yirik shakldagi xamma turlari maqomlarning u yoki bu qismiga ohangdosh - degan edi. Xalq qo’shiqlari o`zining musiqiy rovonligi va ritmik ko’rinishi bilan xalq og`zaki ijodining professional ko’rinishi bo’lgan kup kismli vokal cholg’u asari bulmish makomlar bilan xam uzviy boglikdir. Makom l ar asosan ko`p qismliligi ovoz diapozonining tengligi masshtabining kattaligi va ijrochilikdagi murakkabligi va hozirgi urta maktablarga musiqa darslari programmasida atroflicha taxlil kilib urgatilmasligi uchun xam bu nodir musiqa merosimizni yoshlar yaxshi

tushunmaydilan, chunki, xalq qo’shiqlari makomlar xalq ma’naviyatida ijobiy o’rin tutgani uchun xam bu musiqaning meros asrlar osha og’izdan tushunmashdan kuylab kelindi. Odamlar birgalikda kuylay boshlaganlaridan beri ularda umumiy ritm va sur'atga rioya qilish zaruriyati paydo bo’’lgan. Ibtidoiy xalqlarning raqs va qo’shiqlarida ritmni qarsak chalib berib turganlar, shuningdek, do’pirlatib yoki do’mbira chertib urib turganlar. Qadimgi Gretsiyada xor rahbarlari bo’lib, ular oyoqlarini do’pirlatib, ritm belgilab berganlar. Yana shu ham ma'lumki, Rim qo’shiq maktabida xorni boshqarib turish uchun ma'lum qo’l harakatlaridan foydalanishgan.

Dirijorlikning mazkur ikki usuli orkestr boshqaruviga asos soldi, birgalikdagi aniq ijroni yo’lga qo’yish uchun dirijor taktni oyog’i bilan urib, tayoqcha bilan pult yoki polni taqillatib, yana shuningdek, karnay qilib o’ralgan nota daftari bilan pultni urib ko’rsatib turardi. Xullas, taktni oyoq bilan urib ko’rsatish uzoq vaqt davom etdi. Shu bois bu narsani ko’pchilik g’ashi kelib eslaydi. Xususan, nemis bastakori Matteson (1731 y) kinoya bilan shunday degan edi «Ba'zilar taktni oyoq bilan urib ko’rsatish haqida ijobiy fikr bildirishlari taajjublanarli, balki ular o’z oyoqlarini boshlaridan ko’ra aqlliroq deb hisoblasalar kerak. Shu bois oyoqga bo’ysunadilar». Dirijorlik tayoqchasi esa u paytda turli uzunlikda yasalar edi. Ba'zan, uning uzunligi 180 smga yetardi va u «qirollik jezli - hassasi» deb yuritilardi, hamda uni yerga urib, takt belgilanardi.Opera teatrida, kontsert zalida, cherkovda polga urilgan zarb tovushi naqadar katta shovqin chiqarishini tasavvur qilish qiyin emas. Orkestr boshqarishning bunday usuli ayniqsa Fransiya, hususan Parij shahrida keng tarqalgan edi. U Lyulli degan kompozitor tomonidan olib kirilgan va tarqalgan. Bir kuni, u musiqaga berilib ketib, dirijorlik qilayotgan paytda «xassa» tayog’ining o’tkir uchi bilan oyog’I jarohatlangan. Bu jarohat esa uning o’limiga sabab bo’lgan. Biroq ushbu fojea ham allaqachon nihoyatda chuqur ildiz otib ketgan bu an'anaga soya solmadi. Bir so’z bilan aytganda, XVII va XVIII asrlarda dirijorlik vazifasini asosan klavesin, organ kabilarni chaluvchi

kompozitorlar, ba'zida esa bugun biz orkestr kontsertmeysteri deb atab kelayotgan asosiy skripkachi bajarardi. Ular asosan o’zlarining, ba'zida esa o’zgalarning asarlarini orkestr jo’rligida ijro etishardi.

Musiqa san'ati jadallik bilan rivojlana boshlagan davrlarga kelib, ilk bor ahamiyatga molik bo’lgan operalar paydo bo’lgan. Kompozitorlar turli ansambl hamda ovozlar uchun musiqa yoza boshladilar. Ana shunday guruhlar ijrosidagi sur'atning yagona bo’lishiga erishish uchun bularni boshqarishga ehtiyoj to’g’ildi. Yaratgan musiqiy asarlar murakkablashgani sari, qo’shiqchilarni va orkestrni boshqarishga bo’lgan ehtiyoj yanada kuchaya bordi. Ijroda yakdillik va sur'atga rioya qilish zaruriyati bu muhim vazifani eng mas'ul va malakali musiqachilar zimmalariga yuklashni talab etar edi.

Bundaylar esa orkestrning birinchi skripkachisi yoki orkestrda uyg’unlikni ta'minlovchi chembalo partiyasini ijro etuvchi sozandalar bo’lgan. Ba'zan bu vazifani ularning har ikkalasi birgalashib bajarganlar. Ya'ni chembalachi yakkaxonlar va xorni boshqarsa, birinchi skripkachi esa orkestrni boshqarardi.

Bu tarzdagi boshqaruv ham dirijorlik edi, biroq unda bu ish hozirgi ahamiyatiga shakliga ega emasdi. Dirijorlik san'ati rivojlanishining bu bosqichidagi o’ziga xoslik xususiyati - orkestrni uning a'zosi bo’lgan musiqachilar boshqarishidan iborat edi. Dirijorlik qilar ekanlar, ular o’zlarining asosiy mashg’ulotlarini ham davom ettirganlar: birinchi skripkachi, birinchi skripka partiyalarini chalgan, organchi - organ chalgan, chembalochi-chembalo chalgan. Bu tarzda bir necha vazifani birgalikda olib borish holati uzoq yashay olmasligi aniq edi. Bu holat musiqiy asarlar fakturasini aytarli darajada sodda va barcha ijrochilarga yetarlicha ma'lum va tushunarli bo’lgan paytgacha yashadi, ularning aksariyati tushunarli bo’lgani uchun ham saqlanib turgan edi. Musiqiy san'atning rivojlangani sayin asarlar tarkibi va musiqiy til ham murakkablashib bordi. Bir vaqtning o’zida orkestrda ishlab, ham uni boshqarish murakkab, keyinchalik esa

mutlaqo bajarib bo’lmaydigan ishga aylandi. Musiqiy asar tarkibi, tili, fakturasi murakkablashib ketib, musiqaning jamoaviy ijrosini boshqarish mumkin bo’lmay qolganda, ijroni boshqarish vazifasini ayni vaqtda orkestrda band bo’lmagan shaxs o’z zimmasiga oldi. Ana shu davrni dirijorlikning vujudga kelishi, ya'ni zamonaviy tushunchamizdagi dirijorlikning boshlanishi deyish mumkin. Dirijor, orkestrni ichkaridan turib emas, balki tashqaridan qarab boshqarish lozim ekanligi uchun undan ajralib chiqdi. Bu vaziyat ijroni boshqarish imkoniyatlarini ancha ko’paytirib, dirijorning boshqa musiqachilarga ta'sir kuchini oshirdi. Endilikda dirijor musiqiy asarni talqin etuvchi yagona shaxsga aylandi. Dirijorlik texnikasining rivojlanishi va mukammallashuvi jarayoni boshlanib ketdiki, busiz murakkablashgan, turli ijro vositalaridan kelib chiqib musiqani talqin etuvchi ulkan ijrochilar jamoasini boshqarish mumkin emasdi. Birinchilardan bo’lib bu kasbni ma'lum dirijorlik qobiliyatiga ega bo’lgan ijrochi-musiqachilar yoki kompozitorlar mahorat cho’qqisiga olib chiqdilar. Bu o’rinda Lyulli, Glyuk, Motsart, Mendelson, Shpor, Veber, Rixard Shtraus, Vagner, Berlioz, F. List, G. Maler va boshqalar nomlarini sanab ўtish mumkin. Nomlari keltirilgan dirijorlarning barchasi bu kasb bilan o’zlarining boshqa mutaxassisliklari - kompozitsiya, skripka chalish va xokazo bilan bir vaqtda, parallel ravishda shug’ullanganlar. Bunday parallel faoliyat keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. Masalan, kompozitor Vagner, kompozitor va pianinochi Ferents List, pianinochi Gans Fon Byulov, kompozitor Gustav Maler, kompozitor va pianinochi Sergey Raxmaninov, pianinochilardan Ziloti va Safonov, Rixter va Motllar ko’zga ko’ringan dirijor bo’lganlar. Ular kompozitorlik ma'lumotini qo’lga kiritganlar va ayni paytda pianinochi ham bo’lganlar. Nikish - altchi va kompozitor, Arturo Toskanini - violonchelist, Bruno Valter va Otto Klemperer-pianinochi, Oskar Frid - valtornachi bo’lgan va xokazo.

Musiqiy san'atning keyingi rivojlanishi dirijorlik kasbi bilan shug’ullanuvchi musiqachilardan boshqa mashg’ulotlardan voz kechib, o’zlarini aynan shu kasbga bag’ishlashlarini taqozo etdi. XIX asrda dirijorlik san'ati ayniqsa Germaniya va

Avstro-Vengriyada alohida rivoj topdi. Tarix taqozosi bilan, Germaniya ko'plab mahalliy davlatlarga bo'linib ketgan edi. Bu «davlatchalar»ning har biri poytaxtiga ega bo'lib, ularda o'z opera teatri va kontsert faoliyati bilan shug'ullanuvchi orkestrlari bor edi. Bunday ahvol dirijorlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi, bu esa o'z navbatida dirijorlik san'atining yuksalishuviga turtki bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmida o'z musiqasiga dirijorlik qilgan kompozitorlar o'rniga yangi tipdagi - boshqa mualliflar asarlariga dirijorlik qiluvchi dirijorlar keldi. Bundaylardan birinchi sifatida Gans Fon Byulovning nomini tilga olish joiz. «Taniqli dirijor bo'lishi bilan birga buyuk kompozitor ham bo'lgan, mana shu insondan minnatdor bo'lishimiz kerak. Zero, u tufayli dirijorlikka hunar emas, balki san'at sifatida munosabat shakllandi», deb yozgan Gans Byulov haqida taniqli dirijor F. Veyngartner. Gans Fon Byulovning ustozi Rixard Vagner, so'ngra Gans Rixter, Feliks Motl, Gustav Maler, Feliks Veyngartner, Artur Nikish kabilar dirijorlikni SAN'AT deya baholashdi. Bu xuddi yakkaxon musiqachining san'ati kabi buyuk san'at deb hisobladilar. Rixard Vagner va Gans Fon Byulovdan keyin nemis dirijorlik maktabini Gans Rixter, Anton Zeydl, Feliks Motl, Karl Muk, Artur Nikish, Feliks Veyngartner, Gustav Maler, Rixard Shtraus va boshqalar davom ettirdilar. Ulardan keyingi dirijorlar avlodi esa - Bruno Valter, Arturo Toskanini, Sergey Kusevitskiy, Albert Kouts, Villem Mengelberg, Otto Klemperer, Oskar Frid, Gerberd Fon Karayan, Sharl Myunsh va boshqalar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiyada M. A. Balakirev, aka-uka Anton va Nikolay Rubinshteynlar, E. F. Napravnik, S. Raxmaninov, V. I. Safonov va boshqalar dirijor sifatida faoliyat ko'rsatdilar. O'z faoliyatlarini Davlat to'ntarilishidan so'ng (1917 yil) boshlagan keksa avlod ustalari butun mas'uliyatni o'z zimmalariga oldilar. Ular orasida - A. Glazunov, M. Ippolitov-Ivanov, S. Vasilenko, I. Pribik, Xessin, U. Avranek, V. Suk, N. Malko, A. Pazovskiy, N. Golovanov, A. Gauk, S. Samosud va boshqalar bor edi. 1938 yilda Moskvada bo'lib o'tgan Butun ittifoq dirijorlar tanlovi laureat va diplomantlarni kashf qildi: E. Mravinskiy, A. Melik-Pashaev, N. Raxlin, K. Ivanov,

M. Paverman, K. Eliasberg va boshqalar shular jumlasidandir. II Jahon urushidan keyingi (1941-45) 10 yillik dirijorlik san'atining gullab yashnagan davri bo'ldi. Bu davrda B. Xaykin, E. Svetlanov, K. Simeonov, N. Niyazi, G. Rojdestvenskiy, O. Dmitriadi, N. Anosov, L. Ginzburg, I. Musin, M. Kanershteyn, N. Rabinovich, K. Kondrashin va boshqa nomlar paydo bo'ldi. Hozirgi paytda esa Yu. Temirkanov, D. Kitaenko, Yu. Simonov, A. Fedoseev, A. Juraytis va boshqalar shu sohada nom qozonganlar. XX asrning 30 yillaridan boshlab O'zbekiston hududida ko'p ovozli jamoalarning paydo bo'lishi, ya'ni musiqali drama, 1939 yilda opera va balet teatri, xalq cholg'ulari orkestri va operetta teatrlarining paydo bo'lishi natijasida dirijorlik kasbiga bo'lgan ehtiyoj va intilishlar sababli bir qator ko'zga ko'ringan mashhur va taniqli dirijorlar yetishib chiqdi. Bular M. Ashrafiy, A. Kozlovskiy va ularning juda ko'p shogirdlari, Bahrom Inoyatov, Fazliddin Shamsiddinov, Naum Goldman, Georgiy Doniyax, Abdug'ani Abduqayumov, Dilbar Abdurahmonova, Nabi Xalilov, G'ani To'laganov, Fattoh Nazarov, Said Aliev, Mardon Nasimov, Ergash Toshmatov, Zohid Haqnazarov, Quvonch Usmonov, Hamid Shamsuddinov, Foruh Sodiqov, Narimon Olimov, Botir Rasulov, Fazliddin Yoqubjonov, Eldor Azimov, Valentin Rudenko va boshqalardir.

## Bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan tajriba sinov ishlari.

Quyi sinflarda o'quvchilarni musiqa tinglash, uni idrok etish, kuyga tavsif berish, qo`shiq kuylashga o'rgatish juda murakkab pedagogik-psixologik jarayonini talab qiladi. Chunki, o'quvchilarni musiqiy tayyorgarliklarini turli darajada bo'lishi, musiqiy o`quvi, eshituvi, qiziqishlarini ham xilma-xilligi o'qituvchidan yuksak mahoratni va darslarni uyushtirishda turli qiziqarli usul va vositalardan foydalanishni talab qiladi. Ayniqsa 5-6-7 sinf o'quvchilari bu borada jiddiy e'tibor, mas'uliyatni talab qiladi. Ular musiqaga raqs tushish, qo'shiq kuylash, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish kabilarni katta qiziqish va ishtiyoq bilan bajaradilar. Shuning uchun mazkur sinflarda darslarni jonli, ko'tarinki o'tkazish uchun o'qituvchi turli ko'rgazmaliklardan, texnika vositalaridan, tinglash, tahlil qilish, taqqoslash, bahs-munozara va biz oldingi bandda to'xtalib o'tgan uslublardan unumli va ijodiy foydalanishlariga to'g'ri keladi.

## Umumiy xulosa.

Inson o'z tabiatiga ko'ra doimo go'zallikka intilib yashaydi. Shuning uchun ham go'zallikka intilish mayli bilan yashaydigan insonni yoshligidan go'zallik konunlari bo'yicha tarbiyalash, ularda tabiatga, mehnatga, insonlarga, san'atga nisbatan estetik tasavvo'rini kengaytirib, ma'naviy barkamol shaxs kilib tarbiyalashdek vazifani to'lakonli bajarishda tarbiya yig'indisining tarkibiy qismlaridan biri estetik tarbiya muhim o'rin tutadi.

Estetik tarbiya yoshlarda voqelik, ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi go'zallikni idrok yetish salohiyatlarini kuchaytiradi. Ularda milliy madaniyatga, san'at va adabiyotga, xalq an'analari va milliy kadriyatlarga muhabbat tuyg'ularini o'stirish bilan ularni badiiy - emotsional idrok yetishlariga ko'maklashadi. Qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish, musiqaga ritmik jo'r bo'lish jarayonida estetik tarbiya vazifalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Ko'shiklarning tarkibiy tuzilishi, musiqiyligi, ijrosi, yoqimli ovoz, qo`shiq matnining g'oyaviy mazmuni hakidagi ma'ruzalar, suhbatlar, tanikli

xonanda va hofizlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar muayyan maqsadli faoliyat bo'yicha samarali ish shakl va usullari sanaladi.

Xalq qo'shiklari juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, ularga murojaat qilganda respublikamizning o'ziga xos hududiy ijrochilik uslublari, ularni o'ziga xos jihatlarini unutmaslik, etnografik va an'anaviylik holatlariga ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozimligi, bu sohada ish olib boruvchi mutaxassislardan nafaqat kasbiy mahorat, ayni vaqtda milliy musiqa san'atimiz, milliy qadriyatlar, xalq an'analari mohiyatidan yaxshi xabardor bo'lishni taqozo etishi, shu o'rinda xalq qo'shiqlarining mavzulari ularning asosiy turlari bo'yicha tasnifi keltirilgan. Men ushbu BItiruv Malakaviy ishimda xalq qo'shiqlarining tarmoklari, janrlari, ularni yetakchi turlari bo'lmish yalla, ashula, lapar, terma, mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, allalar, bolalar folklor qo'shiqlari va mumtoz qo'shiqlarga misollar keltirdim. Ularning bir-biridan farqi va o'ziga xosligini ko'rsatib berishga harakat qildim.

Turli yunalishdagi tarbiya ishlarini nixoyatda tushunarli, sodda va yuksak metodik darajada tashkil etib, bolalarga ilk yoshligidayoq mexnat malakalarini jismoniy tarbiyani singdirish ularga musiqa va sanatga atrof va tevarakdagi obektiv dunyoga did bilan karashga shakllantirish kerak. Musiqa san'ati xalq ijodining bir kismigina emas inson ruxining pedagogi va raxnamosidir.

Musiqa inson dunyokarashining shakllantiradi. O'z kuchiga ishonish ruxni tiklash vaktinchalik muvaffakiyasizliklar oldida o'zini yo'kotib ko'ymaslik kabi xislatlarini tarbiyalaydi. Musiqa kishilarni birlashtiruvchi buyuk kuch. nafis kuy tinglayotgan kishi kalbida kechayotgan xissiy galayonlarga sherik bo'ladi. Musiqa asarlarning goyaviy idealini kuz oldida gavdalantiradi. Musiqa kishini xayotga chankoklikka urgatadi. Mexnat u nu mini oshiradi. Insoniy xayotga bo'lgan siyosiy estetik karashlari shakllanishida muxim rol uynaydi. Inson musiqasiz yashashni tasavvuriga sig`dirolmaydi.

Xulosa: keyingi paytlarda xalq musiqasini o'rganishga jiddiy ahamiyat berilmokda. O'zbek xalq musiqa merosini o'rganish jaxon miqyosida tarqalmoqda. Xususan 1978 yil oktyabr oyida Samarkand shaxrida o'tkazilgan «Yakin va Urta

Sharq xalqlari professional musiqasining an’analari va zamonaviylik» mavzudagi xalqaro anjuman, yoki 1980 yil may oyida Xivada utkazilgan «og`zaki an’anaviy musiqada professionallik» mavzudagi xalqaro simpoziumlarda avloddan-avlodga o’tib kelayotgan noyob xalq professional musiqa san’ati bulmish xalq qo’shiqlari va makomlarining amaliy, nazariy va tarbiyaviy imkoniyatlari izchil tahlil qilinib, o’zbek xalq qo’shiqchilik san’atini keng o’rganish, tadqiq qilish va xalq orasida targ`ib va tashviq qilish masalasida amaliy tadbirlar kelishib olindi. Maqomlar va xalq folklor qo’shiqlarini moxiyatini to’g’ri tushinish uchun avvalo oddiy xalq qo’shiqlarini sevish, musiqa san’atini qadrlash, eng muximi madaniy merosga e’tiqod qilish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. I A Karimov Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi o'zbekiston sharoitida uni bartaraf yetishning yo`llari va choralari. Toshkent O'zbekiston 2009 yil.

2. I .A. Karimov yuksak manaviyat yengilmas kuch Toshkent manaviyat 2008 yil.'..

3. 1 A Karimov manaviy yuksalish yulida Toshkent O'zbekiston 1998 yil.

4. I A Karimov Bizdan ozod va obod vatan qolsin Toshkent O'zbekiston 1994 yil.

5. 1A Karimov Barkamol avlod orzusi Toshkent Sharq 1999 yil 6.1 A Karimov O' zbekiston XXI Asr busag' asida hafsizlikka tahdid. Barkamollik shartlari va taraqqiyot tafsilotlar Toshkent O'zbekiston 1997yil

7. 1 A Karimov Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori Toshkent Sharq 1997 yil

8. A Ibrohimov Vatan tuyg'usi Toshkent O'zbekiston 1996 yil

9. Safo Ochil Mustaqillik manaviyati va tarbiyaviy asoslari Toshkent Manaviyat 1995 yil.

10. I A Karimov Halqimizning yo`li mustaqillik ozodlik va tub islohatlar yo`lidir Toshkent O'zbekiston 1996 yil

11. I A Karimov turkiston umumiy uyimiz Toshkent O'zbekiston 1995 yil

12. I A Karimov O'zbekiston mustakil tarakiyot yulida Toshkent O'zbekiston 1998 yil

13. A Fitrat O'zbek Kllassik musiqiy va uning tarixi Toshkent Fan 1993 yil

14 Kaykovus Qobusnoma Toshkent istiklol 1994 yil

15. A Bobohonov O'zbekistonda pedagokik fikr tarakiyoti tarihidan Toshkent O'ktuvchi 1967 yil

16. Buhoriy Dilda yor adabiyot va san'at nashriyoti Tashkent 1993 yil.

**17.** H. Nurmatov, N. Norxo`jayev. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun darslik. T.: O`kituvchi. 1998-yil

18. H. Nurmatov, N. Norxo`jayev, A. Mirrahimov. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

19. H. Nurmatov, N. Norxo`jayev, A. Mirrahimov. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

20. Ibrohimov O, J. Ibrohimov, I. Botirov. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. – T. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.